

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 41+004.13+042

MO‘MINOVA TABASSUM SIDDIQJONOVNA

**ADABIY QAHRAMON NUTQIDA MILLIYLIK VA
RUHIY KECHINMANI TASVIRLASH USULLARI**

(Xurshid Do‘stmuhammad qissalari misolida)

m a v z u s i d a g i

magistrlik akademik darajasini olish uchun yozgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

**A. A. QOSIMOV,
filologiya fanlari doktori.**

Farg‘ona – 2018 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1- bob. Badiiy adabiyotda nutq va uslub muammosi.....	10
1.1. Nutq tiplari va uning shakllari.....	10
1.2. Yozuvchi uslubining o‘ziga xosligi.....	24
Bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	38
2- bob. Qahramon nutqi va milliylik.....	39
2.1. Milliylikni ta’minlovchi omillar.....	39
2.2. Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida qahramon nutqi va milliylik elementlari	48
Bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	59
3- bob. Ruhiy kechinma va nutq.....	60
3.1. “Nigoh” qissasida qahramon nutqi va ichki kechinma tasviri.....	60
3.2. “Kuza” qissasida qahramon ruhiyatini ochish usullari.....	69
Bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	76
Umumiy xulosa.....	77
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	79

K I R I S H

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Keyingi yillarda milliy adabiyotimiz badiiy-estetik jihatdan taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Bu, albatta, istiqlol tufayli jamiyatimizning milliy tafakkuri rivojlanishi bilan bevosita bog'liq hodisadir. Jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti ko'p jihatdan undagi ziyolilarning jamiyatda tutgan maqomi va o'sha jamiyat a'zolarining unga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. XX asr milliy tariximizga nazar solinsa, unda ziyolilarning tutgan o'rni ham, ularga munosabat ham muttasil o'zgarishda bo'lganini ko'rish mumkin. Tabiiyki, bu narsa ijtimoiy hayot oynasi bo'lmish badiiy adabiyotda o'z aksini topadi.

Ma'lumki, o'tgan asrning 60-70- yillari jamiyatda sotsialistik g'oyalarga ishonch "qayta tiriltirilgan" davr bo'ldi. Ya'ni, jamiyat hayotidagi barcha muammolarni shaxsga sig'inish oqibatlariga yo'yilib, endi ko'pchilikda "partiya-hukumatimiz siyosati to'g'ri yo'lga tushdi, yaqin kelajakda kommunistik jamiyat quriladi" degan ishonch tug'dirilgan edi. XX asrning 60-70- yillarida ijod qilgan Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'lmas Umarbekov, O'tkir Hoshimov, SHukur Xolmirzaev kabi aksar nosirlarimiz adabiyotga 50- yillarning oxirlaridan kirib kelgani e'tiborga olinsa, ularning ijtimoiy qarashlari asosini ana shu ishonch tashkil etadi. SHu bois bu avlod yaratgan asarlarning qahramonlari – kurashchan kishilar, ularning talqinida tashqi xatti-harakat etakchi. Zero, bu qahramonlar o'sha g'oya, o'sha maqsad bilan yashaydi, kurashadi. Bu davrdagi asarlarda o'sha maqsad uchun yashayotgan va unga etishga halal berayotganlar orasidagi kurash yotadi.

XX asrning 70- yillari oxiri, 80- yillar boshi adabiyotida esa bu jarayon o'zgacha talqinini topdi. Bu davrda yaratilgan asarlarda ziyoli obrazining yangi tipi maydonga keldi. Mazkur yangi tiplar, albatta, ularning yaratuvchisi bo'lgan ijodkorlarning ijtimoiy-estetik qarashlari, hayot qonunlarini teran mushohada

etishlari bilan bog'liq edi. Adabiyotimizga kirib kelgan bu yangi avlod o'zgacha bir sharoitda shakllangan edi. Bu davrga kelib, partiyaning 60- yillardagi da'volari cho'pchak ekanligi ayon bo'lib qolgandi. Bu avlod o'zidan oldingi avloddan farqli ravishda ana shu maqsadga, g'oyaga endi ishonmas edi. Ijtimoiy-siyosiy, badiiy-estetik qarashlari bilan kishilar ongida ma'lum o'zgarishlarni harakatlantira olgan Murod Muhammad Do'st, Tog'ay Murod, Xayriddin Sultonov, Erkin A'zam, Ahmad A'zam kabi yozuvchilarimiz asarlarida oldingi davr asarlaridan farqli o'laroq, yangi tipdagi ziyoli obrazlari yaratildiki, bu bevosita ijtimoiy voqelikdagi o'zgarishlar, hukmron mafkura talablarini har tomonlama chuqurroq mushohada qilish, kishilar ongidagi evrilishlarni teran anglab etish natijasida yuzaga keldi. Endi bu qahramonlar belgilangan maqsad sari og'ishmay ketaveradigan, g'oya uchun jonini jabborga berib kurashadigan emas. Bu davr asarlarida yaratilgan ziyolilar oldingilarga nisbatan boshqacharoq harakat qiladilar. Ular hayot kamchiliklarini ma'naviy-axloqiy prinsiplardagi kamchiliklardagina deb bilmaydilar, balki ijtimoiy voqelikning qandayligi va o'sha voqelikda harakat qilayotgan o'zi haqida, o'zining kimligi, ichki maqsadi, tashqi harakat qiyofasi, ijtimoiy ongidagi tebranishlar, evrilishlar haqida o'ylay boshlaydilar. Boshqacha aytsak, bu davrga kelib jadid adabiyotida boshlab berilgan an'ana – jamiyatning mavjud holati, uning qay tomon borayotgani haqida teran o'y-mushohada yuritayotgan ziyoli obrazlarini yaratish davom ettirildi. Ayni paytda, bu an'ana yangi ijtimoiy-tarixiy sharoitda davom ettirilgani uchun ham yangicha mazmuniy yo'nalishga ega bo'ldi. Bu davr ziyolisi endi jamiyat haqidagina emas, jamiyatdagi o'zi haqida ham o'ylaydi.

XX asrning so'nggi yillarida adabiyotimizda paydo bo'lgan bir qator yozuvchilar borki, ular o'z asarlarining mohiyatida erkin va faravon turmushni istagan, shunga amal qilishga ehtiyoj sezgan adiblar ko'zga tashlana boshladi va ular asarlarida inson qadri, qismati o'zgacha ruhda tasvirlandi. Birinchi navbatda inson ma'naviy kamoli badiiy talqin etildi. Zero, birinchi Prezidentimiz ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni haqida maxsus to'xtalib, quyidagilarni

e'tirof etgan edi: "Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men, avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksaklikka da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman"¹. Adabiyotda qahramon "men"ini tasvirlash, ongidagi evrilishlarni ko'rsatish uchun qahramon nutqi, ruhiy-ma'naviy olami ifodasi muhim o'rin tuta boshladi.

Hozirgi globallashuv jarayonlari shiddat bilan davom etayotgan davrda badiiy adabiyotni nutqdagi milliy o'ziga xoslik hamda ruhiy olam tasviri nuqtai nazaridan o'rganish har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

Bu holat, ayniqsa, keyingi davr o'zbek adabiyotining iste'dodli adiblaridan biri Xurshid Do'stmuhammad asarlarida o'zining yorqin ifodasini topgan. Shu ma'noda adib ijodining so'nggi yillarida yaratilgan asarlari orasidan aynan qissalarida qahramon nutqida namoyon bo'luvchi milliylik va ruhiy kechinmani tasvirlash usullari jihatidan tahlil va tadqiq qilish magistrlik dissertatsiyamiz mavzusi dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida nutq va uslub masalalari hamda milliylikka bag'ishlangan bir qator ishlar qilingan. Xususan, Platon, Aristotel, Gegel, V.G.Belinskiy kabi faylasuf va olimlarning ilmiy asarlarida mazkur masala doirasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan².

O'zbek adabiyotshunosligida ham nutq va uslub masalasiga e'tibor berish uzoq tarixga borib taqaladi. Xususan, Navoiy, Fitrat, CHO'lpon, Izzat Sulton, To'xta Boboev³, Hamidullo Boltaboev kabi ijodkor va olimlar nutq va uslub masalasining nazariy asoslari yaratilishiga o'z hissalarini qo'shganlar. A.Rahimov, U.Normatov, B.Nazarov, B.Sarimsoqov, N.V.Vladimirova, Y.Solijonov,

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B. 17.

² Афлотун. Давлат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015; Арасту.Поэтика.Ахлоқи кабир.Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012; Гегель. Эстетика.Биринчи жилд. Рус тилидан М.Абдуллаев таржимаси. – Фарғона. 2011;

³ Иzzат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2006. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, 2002, 85- bet. Fitrat A. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 112 б.

D.To'raev, D.Quronov, B.Karimov, Q.Yo'ldosh, A.Sabirdinov, S.Mo'minov, M.Toshtemirov, G.Imomova, G.Ernazarova⁴ kabi olimlar tadqiqotlarida, ilmiy asarlarida ham mavzuga oid qarashlar o'z ifodasini topgan.

O'zbek adabiyotshunosligida milliy xarakterga sof adabiy muammo sifatida XX asr oxirlaridan echim izlana boshlangan. Xususan, adabiyotshunos A.Rahimovning nomzodlik dissertatsiyasida milliylik va umuminsoniylik masalasi, tadqiqotchi G.Imomova⁵ tadqiqotida badiiy nutqning milliy xarakter yaratishdagi ahamiyati, G.Sattorovanning dissertatsiyasida esa 90- yillar o'zbek hikoyachiligidagi milliy xarakter masalasi tadqiq etilgan.

Bundan tashqari X.Do'stmuhammad ijodi bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A.Qosimovning doktorlik dissertatsiyasida zamonaviy o'zbek nasridagi noan'anaviy tasvir ko'rinishlarini tadqiq etishda X. Do'stmuhammadning "Bozor" romani va bir qator hikoyalari tahlilga tortilgan⁶. D.To'rayev, Y.Eshmatova tomonidan Xurshid Do'stmuhammad qissalari to'g'risida bir necha maqolalar e'lon qilingan⁷. O.Rajabova "Xurshid Do'stmuhammad asarlarida ijodiy individuallik"⁸ mavzusida magistrlik dissertatsiyasini yoqlagan. Ularda adib ijodining shakllanishi va taraqqiyoti masalasiga bugungi kun nuqtai nazaridan munosabat bildiriladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy- tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq badiiy nutq muammolari mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

⁴ Рахимов А. Миллий адабиётлар равнақи. – Тошкент: Фан, 1981; Солижонов Ў. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Филол.ф.д. дисс. – Тошкент, 2002; Солижонов Ў. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; Сиддик Мўмин. Нутқ ва ижод услубининг худудий хосланиши. – Тошкент, 1998.

⁵ Имомова Г. Типик миллий характер яратишда бадий нутқнинг ўрни. Филол.ф.н.дисс. автореф. – Тошкент, 1993. 24 б.

⁶ Қосимов А. Типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсирнинг назарий муаммолари. Фил.фан.докт.дисс.автореф. Тошкент. 2007.

⁷ Eshmatova Y. Ichki monolog va ruhiyat tasviri. O'zbek tili va adabiyoti – Toshkent 2013/ № 1 61- bet

⁸ Rajabova O. Xurshid Do'stmuhammad asarlarida ijodiy individuallik. – Nukus, 2015.

Tadqiqot maqsad va vazifalari. Xurshid Do‘stmuhammad qissalari asosida adabiy qahramon nutqida milliylik va ruhiy kechinmani tasvirlash usullarini tadqiq etish, badiiy nutq imkoniyatlarini chuvurroq tadqiq va tahlil etish mazkur ishning maqsadidir. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda ishda quyidagi vazifalarni hal etish ko‘zda tutiladi:

- badiiy adabiyotdagi nutq va uslub muammosini o‘rganish;
- nutq tiplari va uning shakllari, yozuvchi uslubining o‘ziga xosligini aniqlash;
- qahramon nutqi va milliylik, milliylikni ta’minlovchi omillarni aniqlash;
- Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida qahramon nutqi va milliy til elementlarini ko‘rsatish;
- ruhiy kechinma va nutq, qahramon ruhiyatini ochish usullarini, ichki kechinma tasvirlarini tadqiq etish.

Tadqiqot obyekti. Yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad ijodiga mansub bo‘lgan qissalar asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotning predmetini Xurshid Do‘stmuhammad qissalari personajlari nutqining milliylik va ruhiy kechinma bilan bog‘liq jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, psixologik, sotsiologik, badiiy-tahliliy, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- qahramon nutqida milliy til elementlari, ruhiyat tasviri singari etakchi badiiy vositalarning poetik tasvirda tutgan vazifaviy o‘rni va uslubiy ahamiyati belgilab berildi;
- falsafiy fikr shakllanishida nutqiy ong, mushohada nisbati va shakliy amaliyot mushtarakligi asoslandi;
- uslubiy o‘ziga xosliklari ko‘rsatib berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi bo‘yicha ishlarni yaratish, oliy ta‘lim muassasalarida o‘qiladigan adabiyotshunoslikka oid darslik va o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirish ishiga mazkur tadqiqot natijalarining tadbiiq etilishida ko‘rinadi. Tadqiqotning nazariy xulosalari badiiy asarni sistem butunlik sifatida o‘rganish, uni san‘atning boshqa turlari bilan o‘zaro aloqasini tadqiq etishda manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati adabiyotshunoslik lug‘atlaridagi mavjud sharh, izohlarga qo‘shimchalar kiritish va takomillashtirishda, zamonaviy o‘zbek qissachiligining badiiy tafakkur tadrijini ko‘rsatishda qo‘llanilishi bilan belgilanadi. Zamonaviy o‘zbek qissachiligidagi badiiy sintezga oid tahlil natijalaridan san‘atshunoslik fanlaridan o‘quv qo‘llanmalari yaratishda foydalanish mumkin. Tadqiqotda olingan natijalar barkamol shaxsni tarbiyalash va milliylik tasviri orqali milliy mustaqillik g‘oyasini singdirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy mazmuni muallif tomonidan 1 ta Respublika OAK tasarrufiga kiritilgan ilmiy jurnalda chop etilgan maqola, 5 ta ilmiy maqola va tezislarda o‘z ifodasini topgan.

1. D. Hasanova, T. Mo‘minova .Navoiy suhbat va suhbatdosh haqida // “FarDU.Ilmiy xabarlar – Nauchnyy vestnik. FerGU”. 2017 yil,1- son.
2. T.Mo‘minova. Adabiy qahramon nutqida ruhiy kechinma // “Nutq madaniyati va tilshunoslikning dolzarb muammolari” mavzuidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Farg‘ona, 2016.
3. T.Mo‘minova. Personaj nutqi va milliy xarakter // “Badiiyat ummoni” Ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 576 yilligiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami. – Farg‘ona, 2017.
4. D. Hasanova, T.Mo‘minova “Maqto‘v va fatik muloqot” // “Filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy internet-konferensiya materiallari Farg‘ona. 2017 yil.

5. S.Mo‘minov, D.Hasanova, T.Mo‘minova. Muloqot va manfaat uyg‘unligi haqida // “Filologiyaning dolzarb masallari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy internet-konferensiya materiallari. – Andijon, 2017 yil.

6. T.Mo‘minova. Xurshid Do‘stmuhammadning “Nigoh” qissasida qahramon nutqi va ichki kechinma tasviri // “Xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro anjuman. – Farg‘ona. 2018 yil.

7. T.Mo‘minova. Badiiy matnda personaj nutqi va shaxs munosabatlarini tasvirlash usullari // “Adabiy aloqalar va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro anjuman. – Farg‘ona. 2018 yil.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob olti fasldan iborat asosiy qism, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi

BIRINCHI BOB

BADIIY ADABIYOTDA NUTQ VA USLUB MUAMMOSI

1.1. Nutq tiplari va uning shakllari

Nutq tiplari va uning shakllari to‘g‘risida so‘z yuritishdan avval badiiy asar tili haqida to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Badiiy asar tili bo‘yicha “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Adabiyot nazariyasi” kabi darsliklarda atroflicha ma’ulomotlar berilgan. I.Sulton, T.Boboev, H.Umurov, E.Hudoyberdiev, D.Quronov darsliklari buning yorqin namunasi. Masalan, adabiyotshunos H.Umurov badiiy asar tili haqida gap boshlashdan avval, so‘zning qudrati va uning mo‘jiza ekanligini ta’kidlab, o‘z o‘rnida Hazrati Alisher Navoiyning so‘z ta’rifidagi quyidagi satrlarini keltiradi:

So‘z guharig‘a erur oncha sharaf
Kim bo‘la olmas anga gavhar sadaf

To‘rt sadaf gavharining durji ul,
Yetti falak axtarining burju ul...

Jon o‘lub ul, ruh aning qolibi,
Kim tanida ruh – aning tolibi...

So‘zdin o‘likning tanida ruhiy pok,
Ruh dog‘i tan aro so‘zdin halok.
Tirguzub o‘lganni kalomi fasih,

O‘ziga “Jonbaxsh” laqab deb Masih...

So‘z din etib o‘tqa azimat Xalil.

So‘z yukiga homil o‘lub Jabroil.

Tengriki, insonni qilib ganji roz,

So‘z bila hayvondin anga imtiyoz.⁹

Professor H.Umurov so‘z adabiyotning birinchi va bosh quroli ekanligini aytib, badiiy asarni dunyoga keltiruvchi obraz va obrazlilik, xarakter va tip, mavzu va g‘oya, syujet va kompazitsiya, tur va janr, ijodiy metod va uslubga o‘xshash vositalarning markazida so‘z turganligini quyidagicha ta’kidlaydi: “...bu vositalarning hammasi ham so‘z vositasida yaratiladi, so‘z tufayligina jozibaga, ta’sirdorlikka, yaratishga qodir bo‘ladi, ya’ni so‘zla tiriladi. Shu tufayli so‘z nodirlik, bebaholik, mo‘jizadorlik xislatlarini bor-budicha o‘zida mujassam etadi”¹⁰.

“Ijodkorning asosiy quroli so‘z, nutqdir. Badiiy asarning jozibasi, sermazmunligi va puxtaligi birinchi galda, yozuvchi nutqining rang-barangligi, salmog‘i, leksik va semantik boyligi bilan belgilanadi”¹¹.

Ijodkorning asosiy quroli so‘z bo‘lar ekan, har qanday adabiy asarni shakllantiruvchisi ham so‘z, badiiy til sanaladi.

Yirik rus filolog olimi G.Vinokur badiiy tilga ta’rifni: “Badiiy til deganda, badiiy asarlar yozishda ishlatiladigan til tushuniladi, – deya boshlaydi. – Ma’lumki, badiiy asarlar yozishda qandaydir alohida tildan emas, balki kundalik muloqotdagi kabi milliy til unsurlaridan foydalaniladi. Avvalo, kundalik muloqot tili ham, badiiy til ham informatsiya yetkazishva informatsiya olishga xizmat

⁹ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshent, 2004, 143- b.

¹⁰ Umurov H. O’sha asar, o’sha bet.

¹¹ Solijinov Y. Haqiqatning sinchkov ko‘zlari. – Toshkent, 2009. 104- bet.

qiladi”¹² Ammo badiiy til muloqot tili etkazgan oddiy informatsiyadan farqli o‘laroq, badiiy informatsiya etkazadi. Shuningdek, badiiy muloqotning amalga oshishiga xizmat qiladi. Yuqoridagi fikrlarni Abdulla Oripovning “Xotirot” nomli she’ridan olingan bir parcha bilan izohlaymiz:

Uydan ketganimga o‘n yil bo‘libdi,
O‘n yil qishlog‘imdan yuribman uzoq.
Men yurgan yo‘llarda o‘tlar unibdi,
Ko‘milib bo‘libdi men kezgan so‘qmoq.

E’tiborli jihati shundaki, ushbu parchada ham oddiy kundalik muloqot tilida ishlatiladigan so‘zlar qo‘llanilgan Ammo ular shoirning uyidan ketganiga ancha yillar bo‘lganligi va boshqa shu kabi ma’lumotlar badiiy tilda badiiy informatsiya etkazishga xizmat qilgan.

Ayni shu o‘rinda Qozoqboy Yo‘ldoshning badiiy til atamasiga alohida ahamiyat berish kerakligi to‘g‘risida bildirgan quyidagi fikrlari o‘rinlidir: “Odatda, bu tushuncha o‘quv va metodik abiyotlarda “badiiy til”, “poetik til” shaklida qo‘llaniladi. Bizningcha, tushunchani bunday atash unchalik to‘g‘ri emas. Negaki, badiiy adabiyot o‘zining tilini yaratmaydi, u bunday tilga ega ham emas, balki mavjud milliy tildan foydalanadi, uni ishlatadi xolos. Shu bois badiiy til deyish o‘rinli bo‘lmaydi. “Poetik til” deyilganda ham til bilan nutqning farqi hisobga olinmaydi”¹³.

Badiiy til kundalik muloqot tilidan butunlay farq qilmagan holda obrazlilik va badiiy asarning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi badiiy asar tili hisoblanadi. Adabiyotshunoslik darsliklarining deyarli barchasida badiiy tilning muhim vazifasi sifatida obrazlilik va emotsionalligi ta’kidlanadi. Shu o‘rinda aytish joizki, adabiyotshunos olimlar I.Sulton hamda T.Boboevlar obrazlilik va

¹².Quronov D.,Mamajonov Z, .Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug’ati. – Toshkent:Akadem nashr, 2013.

¹³ Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016, 208- bet.

emotsionallikni alohida-alohida xususiyat sifatida ko'rsatadilar. Yuqorida aytganimizdek, badiiy til adabiy tildan keskin farq qilmaydi. Buning isboti sifatida quyidagi jummalarni keltirishimiz mumkin: "Badiiy til jonli (umumxalq) tilining farzandi bo'lib, uning bosh vazifasi – badiiylik (obrazlik)ni yaratishdir. SHu vazifadan kelib chiqib, jonli va adabiy nutqlarning barcha hodisalarini hissiy (estetik) tarzda umumlashtiradi"¹⁴. Bu borada H.Umurov badiiy tilning bir nechta o'ziga xos asosiy xususiyatlarini ifoda etuvchi qonuniyatlarini ko'rsatadi. Ularning eng birinchisi obrazlilikdir, deydi. Albatta, obrazlilik asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalardan tortib narsa-pedmatlarning barchasi o'quvchi ko'z o'ngida jonli gavdalanishi uchun muhim vosita hisoblanadi. Professor Y.Solijonov ham D.Quronovning shu masala yuzasidan yozganlarini maqullab, quyidagi fikrlarni bildiradi: "Tilning obrazlilikini emotsionalliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, har qanday badiiy asar obrazli nutq asosiga qurilgandagina umri boqiy bo'ladi. To'g'ri kelsa-kelmasa har qanday o'xshatish, jonlantirish, metafora va ramzlarni qo'llash bilan obrazlilik hamda emotsionallikka erishib bo'lmaydi. Obrazlilik asar ohangini, voqelik yo'nalishini, qahramonlar psixologiyasini va eng muhimi, yozuvchi uslubini belgilab beradi. Aytmoqchimizki, har qanday nutq yaltiroq va balandparvoz iboralar ham badiiylikni belgilab berolmaydi"¹⁵. Darhaqiqat, "San'atkor doimo minglab so'zlar ichidan eng keragini tanlaydi, zargarona tanlangan ana shu so'zlar qahramon va sharoitning mazmuni (g'oyasi), holati bilan chambarchas bog'lanishi, u aniq estetik maqsad(mazmun)ni voqe qilishi shart"¹⁶. Bundan ko'rinib turibdiki har qanday so'z badiiy asarda o'z "yuki"ga ega bo'lishi kerak. Xuddi shu narsani H.Umurov "Adabiyotshunoslikka kirish" darsligida Saydi Umurovning "Da'vatkor so'z" kitobidan o'rinli havola berish orqali chiroyli ifodalaydi. Havolada

¹⁴ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2004, 145- b.

¹⁵Solijonov Y. Nazariy poetika. Ma'ruzalar matni. – Farg'ona, 2017.

¹⁶Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2004, 149-b.

berilishicha: “Bir yig‘inda Asqad Muxtor xarakterli bir faktni aytib byergan edi. G‘afur G‘ulom ishtirok etgan mushoiralardan birida yosh shoir Asqad Muxtor tortinib-qimtinib quyidagi to‘rtligini o‘qiydi:

Ikki narsa og‘irdir ko‘nglimga asti,
Ikki narsa uchun yo‘q menda toqat:
Biri – dushmanimning shodon qahqahasi,
Biri – do‘st ko‘zida yaltillagan yosh.

She‘rdan ta’sirlangan G‘afur G‘ulom o‘rnidan turib ketib: “Mo‘ltillagan de, joyiga tushadi”, deydi. Bizningcha, G‘afur G‘ulom “Miltillagan” de, joyiga tushadi”, degan bo‘lsalar kerak, chunki shu so‘zning ma‘nosi – “pirpirab, kuchsiz yonib yoki yorug‘ berib turmoq, ko‘zga tashlanmoq, zo‘rg‘a ko‘rinmoq” asardagi bosh mazmun (g‘oya)ga, uzukka ko‘z qo‘ygandek, mos keladi, ana shundagina u nozik jilolanadi, samimiyligi va shu o‘ringa zarurligi bilan tiriladi”¹⁷.

Adabiyotshunos E.Xudoyberdievning fikriga qaraganda: “20- yillarda so‘zga munosabat sohasida butun xalqqa tushunarli yozishga harakat qilindi. Yozuvchilar tilni boyitishga ham xizmat qildilar. Ular jonli tildan ham naf olishdi, yangi adabiy tilni yaratishda shahar shevalariga suyanishdi, muallif nutqidan personaj tilini farqladilar, tilning noaniq bo‘lmasligiga e’tibor berdilar, asta-sekin ezmalik, kitobiylik, jimjimadorlik adabiyotdan surib chiqarildi”¹⁸. Shunga hamohang tarzda obrazlilikning yana bir muhim xususiyati sifatida H.Umurov ma’nodorlik(aforizm) va qisqalik(lakonizm)ni tadqiq etadi. Haqiqatan ham badiiy asar tarkibidagi so‘zlarning barchasi asar mohiyatining ochib berilishiga qaratilgan bo‘lsa, qolaversa, ko‘p ma’no anglata olgan asarlargina o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha olgan bo‘ladi.

Jumladan, “...yozuvchi so‘zlarni siqilgan mushtday ixcham ishlatish uchun va boshqalar tomonidan qattiq siqishtirilgan so‘zlarni yoziltirib yuborish, ularda

¹⁷ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2004, 151- b.

¹⁸ .Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент, 2008. 110- б.

yashiringan, davr vazifalariga qarama-qarshi bo‘lgan, umri tugagan narsalarni fosh bo‘ladigan darajada yoziltirib yuborish uchun maqollarni o‘rganishi zarur”¹⁹.

Ma’lumot sifatida aytish mumkinki, adabiyotshunos Z.Rahimovning “Adabiyotshunoslik: savol va javoblar” uslubiy ko‘rsatmasida “Badiiy til qanday xususiyatlarga ega?” degan savolga badiiy tilga xos bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni misollar keltirish orqali ifodalaydi:

1. Obrazlilik.
2. Estetikligi.
3. Konkretligi (aniqligi va tiniqligi).
4. Grammatik qoidalardan chekinish.
5. Individualligi (o‘ziga xosligi).
6. Ko‘pqatlamlilik.²⁰

Ushbu ma’lumotlar yuqorida biz misol keltirgan adabiyotshunos olimlar fikrlarining tartibga solingan shakli.

Badiiy nutq masalasiga qadimgi davrda ham arab olimlarining xuddi badiiy matnning o‘ziga bo‘lgani kabi xolis va jiddiy qarashlar mavjud bo‘lgan. Buyuk vatandoshimiz Yusuf Sakkokiyning yozishicha, arab allomalari badiiy nutq masalasini al-ulumu-l – xamsa, ya’ni sarf, navh, ma’no, bayon va badi’ bilan bog‘liqlikda o‘rganganlar. Arab poetikasiga oid qarashlar nisbatan tizimli suratda Johiz, Ibn Mu’tazz va Qudama ibn Ja’far ta’limotida aks etgan ekan, badiiy nutq va uning poetik vazifasiga doir dastlabki ilmiy fikrlar ham shu allomalarning ilmiy ishiga tegishlidir. Johizning “Kitabu-l-bayon” va “Kitabu-l-hayvon” (“Jonzodlar kitobi”) asarlarida turli tarixiy, jug‘rofiy, tibbiyot masalalari orasida nutq madaniyati, notiqlik san’ati va badiiy asardagi muallif nutqi kabilarga doir fikrlar ham keng bayon etilgan.

¹⁹ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2004, 153- b.

²⁰ Rahimov Z. Adabiyotshunoslik: savol va javoblar. – Farg‘ona, 2013, 63-64- b.

O'рта asrlar arab she'riyati va nasri poetikasida ilmi badi' doirasida nafaqat badiiy san'atlar o'rganilgan, balki ilmi badi' – poetikaning nazariy jihatlarini keng va chuqur o'rganuvchi fan sifatida ko'zga tashlanganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Ibn Mu'tazz poetikasida badiiy san'atlar o'z-o'zidan berilmaydi. Nutqning go'zal va ta'sirli bo'lishini ta'minlovchi omillar sifatida badiiy san'atlarga murojaat qilinadi va ularning matn tarkibidagi o'рни va xislati anglatiladi.

Qu'dama ibn Ja'far bu jihatdan o'z zamondoshlaridan ancha ilgari ketib, badiiy nutqning ikki shakli nasr(sochilgan) va nazm (tizimga solingan)ni mohiyat e'tibori bilan fikrning ifoda shakli sifatida o'zaro farqlagan, o'z ta'limotini mana shu ikki yo'nalishga qaratdi. Alloma ikki muhim asar (“Naqdu-sh-she'r” va “Naqdu-n-nasr”) ularning har birida bu ifoda shakllarining nafaqat mohiyatini anglatdi, balki nasr va nazm yo'sinida yaratilgan asarlarni tahlil qilish uchun muayyan me'zon va me'yorlarni belgilashga harakat qildi.

Adabiyotshunos D.Quronov badiiy asar tilining differentsatsiyalanish (ya'ni farqlanish) jarayoniga alohida to'xtalish zarur ekanligini ta'kidlaydi: “Albatta, biz “badiiy asar tili” deganimiz holda, aslida gap badiiy nutq haqida borayotgani ma'lum, chunki til unsurlari ma'lum kontekstni hosil qilgach, nutq hodisasiga aylanadi. Badiiy nutqning farqlanganligi shuki, unda muallif nutqi va qahramonlar nutqi ajratiladi. Ta'kidlash kerakki, mazkur farqlanish asosan epik va liro-epik xarakterdagi asarlarga xosdir”²¹. Shunga o'xshash tarzda olim H.Umurov ham badiiy asar tilini bir-biriga murakkab bog'lanishda bo'lgan muallif nutqi va personajlar nutqi deb ataluvchi ikkita katta qismga ajratadi.

Badiiy asar tilining tarkibiy qismlari to'g'risidagi ma'lumotlarning deyarli barchasida yuqorida ko'rganimizdek eng muhim bo'lgan ikkita asosiy qism: muallif nutqi va personaj nutqi kabi turlarga ajratildi. Bundan farqli ravishda Y.Solijonov: “Badiiy asar tili muallif nutqi, monolog, dialog kabi turlardan tashkil

²¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. 118-b.

topadi. Ammo ular vazifasi jihatidan kimga daxldorligi asar kontekstida ma'lum bo'ladi. Shuning uchun badiiy asar tilini quyidagi nutq tiplariga bo'lib o'rganiladi, deya izohlab, quyidagi turlarni keltiradi:

1. Avtor nutqi.
2. Dialog.
3. Monolog.
4. Ichki nutq.
5. O'zganing nutqi.²²

E'tibor bering, personaj nutqining turi sifatida beriluvchi monolog va dialog alohida-alohida nutq tiplari sifatida berilmoqda. Bu esa, nazirimda ushbu nutq tiplarining batafsil hamda imkoniyat darajalarini keng ochib berilishiga xizmat qiladi. Qolaversa, adabiyotshunos Z.Rahimovning "Adabiyotshunoslik: savol va javoblar" uslubiy ko'rsatmasida ham, "Qanday nutq shakllarini bilasiz?" savoliga muallif, hikoyachi va personaj nutqi kabi shakllari beriladi.

Professor Yo'ldosh Solijonov o'zining "Nutq va uslub" nomli kitobida "80-90- yillar o'zbek nasrining asosiy xususiyatlaridan biri avtor nutqining ifoda vositasi sifatidagi xizmat doirasi bir qadar kengayganligi"²³ ni izohlab, "endi u mazkur vazifasiga qo'shimcha ravishda bir yo'la voqelikni baholash, personajlarga munosabat bildirish, qahramonning ichki kechinmalarini chuqurroq tahlil etish, nuqtai nazar ko'lamini yanada kengaytirish kabi xizmatlarni ham ado eta boshladi"²⁴ deb ta'kidlab o'tadi.

Mazkur kitobda Y.Solijonov boshqa adabiyotshunoslik manbalaridan farqli ravishda muallif nutqining quyidagi turlarindai alohi ajratib ko'rsatadi:

1. Bevosita muallif nutqi.
2. Bilvosita muallif nutqi.

²² Solijonov Y. Nazariy poetika. Ma'ruzalar matni. – Farg'ona, 2017.

²³ Солижонов Й. Нутк ва услуб. – Тошкент: "Чўлпон", 2002, 7- б.

²⁴ Солижонов Й. Нутк ва услуб. – Тошкент: "Чўлпон", 2002. 7- б.

3. O‘zganing nutqi.

Xuddi shunga o‘xshash talqinda Z.Rahimov muallif nutqini quyidagicha ifodalagan:

1. Muallifning xolis nutqi.
2. Muallifning munosabatli nutqi.
3. Muallifning personaj nutqi bilan uyg‘unlashib ketadigan nutqi²⁵.

Bevosita muallif nutqi sof avtor nutqidan tashkil topsa, bilvosita muallif nutqini esa, “ya’ni muallif nutqi tarkibiga personaj tiliga oid so‘zlar kiritilgani, biroq unda ilgari surilgan asosiy g‘oya, fikr, bayon qilish uslubi, tizimi muallifga tegishli bo‘lganligini hisobga olib “bilvosita avtor nutqi” yoxud “subektiv muallif nutqi” deb atash o‘rinlidir”²⁶ deydi. Muallif qahramon nutqi orqali o‘z mulohazalarini, qarashlarini aks yettiradi. Bunday qahramon nutqi vosita bo‘lib, bilvosita muallif nutqini tashkil etadi. Qahramon nutqiga oid so‘zlarning muallif nutqi tarkibiga kirib kelishini aynan bilvosita muallif nutqiga xos bo‘lgan asosiy xususiyati deb ko‘rsatadi. Avtor nutqi tarkibida qahramon nutqining hajmi va uning qay darajada ishtirok etishiga ko‘ra alohida uch xil xususiyatlarini ham Y.Solijonov aniq misollar bilan beradi.

Y. Solijonovning “Nutq va uslub” nomli kitobida ma’lumot berilishicha, 60-70- yillardagi nasriy asarlardagi dialoglar o‘zida voqeabandlik xususiyatini aks yettirgan holda, ular asosan, biror yangi informatsiya yetkazishyoki personajlarga bog‘liq bo‘lgan yangi bir o‘zgarishlarni asoslab byergan. Bunda ko‘proq hikoyachi avtorning o‘rni yaqqol ko‘zga tashlanib, personajlarning xarakterlari anglashilmaydi.

“Dialoglarning tuzilishi ko‘p jihatdan avtor bayonining kompozitsion-uslubiy qurilishini belgilab beradi. Yoki aksincha, avtor bayoni personajlarning o‘zaro suhbatini shunday tashkil etadiki, u asarning kompozitsion-syujet tizimining

²⁵ Rahimov Z. Muallif nutqi va uning ko‘rinishlari // Til va adabiyot ta’limi, 2000. № 3

²⁶ Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: “Чўлпон”, 2002, 6- б.

ajralmas bo‘lagiga aylanib ketadi. Demak, asarning butun bir struktural-tipologik yaxlitligi va uslubiy vazifalari dialogning asarda tutgan o‘rni va roli bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi”²⁷.

Yuqorida aytganimizdek, Y.Solijonovning “Nutq va uslub” nomli kitobi orqali nutq tiplari haqida etarlicha ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Xususan, mazkur kitobda badiiy asarda muhim o‘ringa ega bo‘lgan dialogning asosiy tiplari, turlari va shakllari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Unda hozirgi o‘zbek nasridagi dialoglarning eng ko‘p tarqalgan quyidagi ikki xil tipi ajratib ko‘rsatiladi:

1. Tavsifiy dialoglar.
2. Dramatik dialoglar.

“Birinci tip – tavsifiy dialoglar o‘zining strukturasi jihatdan ma’lum darajada qonun-qoidalarga b‘ysundirilgan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Avtor izohi va luqmalar hajmi nisbatan kengroq, davomiylikka ega, bir yo‘la so‘zlayotgan yoki tinglyotgan suhbatdoshlardan birining ta’rif-tavsifini, xarakter xususiyatlari va xatti-harakatlarini ifodalaydi”²⁸ Shuningdek biror bir bo‘lib o‘tgan hodisa hikoya qilinishi, qolaversa, avtor bunda faktlarning batafsilroq izohlanishiga ham e’tibor beradi. Dialogning bu turida bir-biriga qarama-qarshi holatlar va harakatlar yoki qisqa repliklarning tez-tez alamashinuvi uchratilmaydi. Odatda bir yo‘nalish va yagona izchillikdina davom etadi.

Bunga misol sifatida biz izlanish olib borayotgan X.Do‘stmuhammadning “Panoh” qissasidagi bosh qahramon Ahmadali va uning qishlog‘ida ro‘y byergan zilzila voqeasini ko‘rishimiz mumkin. O‘sha kuni opasining uyidan chiqib uyga qaytayotgan va opasinikidan yuz odimcha uzoqlashganida oyog‘i ostida er silkinganidan to uyiga etib borgunicha xayolidan kechgan o‘ylari, yo‘lda ko‘rgan-kechirganlarini takror-takror hikoya qilib berar, lekin kechinmalarini sira batafsil,

²⁷Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: “Чўлпон”, 2002,64- б.

²⁸Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: “Чўлпон”, 2002, 66- bet.

oqizmay-tomizmay aytolmas, har safar nimalarnidir unutib qoldirayotgandek dostoni uzoq-yuluq bo‘lib qolardi. Qissa qahramoni Ahmadalida kechayotgan his-tuyg‘ulari ifodalangan quyidagi parcha dialogning birinchi tipiga misol bo‘la oladi:

“– Opamnikidan qancha uzoqlashganding? Akasi ikki uch qayta ejikilab shu savolni qaytardi.

– Yuz qadamlar chamasi, – dedi Ahmadali hardamxayol bo‘lib. – Lekin anhorga etishimga ancha bor edi...

– Opam tanchadan turolmay o‘tirgan ekan-a?.. Uylar ko‘z o‘ngingda ag‘dar- to‘ntar bo‘lib ketibdi... O‘sha zahoti ortingga – opamnikiga yugurish xayolingga keldimi, Ahmad?..”²⁹.

Ahadali akasining shunchaki gap orasida byergan savolini har safar eslaganida yuragi zirqirab ketar, nima uchun orqaga qaytib onasining vafotidan keyin onasidek bo‘lib qolgan opasiga yordam berishi keyin uyiga qaytishi kerakligi, ehtimol opasini tom ostida qolib ketishi mumkinligi haqida o‘ylab o‘yiga etolmas edi.

“Dramatik dialog tipidan esa yozuvchi voqelikka keskinlik, shiddat berish, konfliktni kuchaytirish, qahramonlar xarakteri va holatini chuqurlashtirish uchun foydalanadi. Unda avtor remarkasi ko‘p ham ishlatilavermydi, hatto remarkalar ham undagi keskinlikni susaytirishi mumkin. Bu tip O.Yoqubovning “Diyonat”, M.Mansurovning “Mangu jang” romanlarida mahorat bilan qo‘llanilganini ko‘ramiz”³⁰.

Dialogning yuqoridagi ikki asosiy tipi bilan birga faol tarmoqlari sifatida yana quyidagi uch turi beriladi:

1. Jonli (real) dialoglar.
2. Xayoliy (tasavvurdagi) dialoglar.

²⁹ Do‘stmuhammad H. Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2011, 84- bet.

³⁰ Солижонов Й. Нутк ва услуб. – Тошкент: “Чўлпон”, 2002, 69- б.

3. Ichki dialoglar³¹.

Ikki yoki undan ortiq personajlar ishtirok etuvchi, bir-birlari bilan jonli, yuzma-yuz muloqot olib borish jarayoniga jonli dialoglar deb ataladi. Jonli dialoglar asar voqeligini rivojlantirishda va yaxlitligini ta'minlashda xizmat qiladi. Qolaversa, jonli dialog turini belgilashda adabiyotshunoslikda turlicha qarashlar mavjud bo'lib, T. Jo'raevning "Ong oqimi va tasviriylik" nomli monografiyasida: "ichki monolog doirasida o'zi bilan o'zi suhbat"³² tarzidagi ta'rif beriladi. SHu bilan birga, bu tasavvurdagi nutq ko'rinishlaridan biriga to'g'ri kelishi aytib o'tiladi. Y. Solijonov nomlanishi jihatidan xayoliy dialog bilan ichki dialog bir xil taassurot uyg'otsa-da, har ikkisi yaratilish jarayoni va tuzilishiga ko'ra bir-biridan tubdan farq qilishini aytib o'tadi. Sababi oddiy bo'lib, xayoliy dialog qahramonlar o'rtasida qachonlardir bo'lib o'tgan voqeaning ishtirokchilardan birida qayta jonlanishi bo'lsa, ichki dialogda esa asar qahramonining tasavvuridagi hamsuhbati bilan g'oyibona suhbatini tasvirlanadi.

Dialogning "bahs-dialog", "xarakteristik (tavsifiy) dialog", "dramatik dialog", "muhokama dialog" kabi shakllari keyingi yillarda yuqorida keltirilgan asosiy har uchala turlar tarkibida unumli qo'llanilayotganligi e'tirof etiladi. Asar voqealarini rivojlantirishga turtki beruvchi, qahramonlarning ichki va tashqi qiyofasini chuqurroq ochishga xizmat qiluvchi bahs-dialoglarning bir necha usullarini uchratishimiz mumkin. X. Do'stmuhammadning "Panoh" nomli qissasida bahs-dialogning ko'p qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin. Qissaning boshidan oxiriga qadar bo'lib o'tayotgan har bir voqealar rivojida Ahmadali bilan ajralmas hamrohlik qilgan Kimsan ismli obraz aslida Ahmadalining ichki "men"i

³¹Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: "Чўлпон", 2002, 69- б.

³²Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: "Чўлпон", 2002. 70- б.

bo‘lib, u bilan xayolan bahsga kirishar, tutayotgan ishini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini muhokama qilar edi. Kimsan unga hamisha u haq ekanligini uqtirishga urinardi. Voqealar rivoji avj olgan sayin Ahmadalining ham fikr-o‘ylari o‘zgarib borib, asar so‘nggiga yaqin uning ichki “men”i Kimsan ham yangidan tug‘ilgandagi holatida u bilan quyidagicha suhbat quradi:

– Boyagina tug‘ilgan bo‘lsang, yaxshi, qadamingga xasanot, – dedi yangi Kimsanga Ahmadali. – Avval tanishaylik, men – Ahmadaliman...

– Yo‘q, men – Ahmadaliman, – dedi yangi Kimsan.

– Nima?

– Men – Ahmadaliman!

– Men-chi? – dedi hayron bo‘lib Ahmadali.

– Sen hech kim emassan, Kimsansan, xolos!...³³

Zilzila voqealaridan so‘ng sanoqli kunlar ichida Jo‘ba qishloqliklar yoppasiga qurilish boshlab yuboradilar. Kech kuz butun bir qishloq changi ko‘kka o‘rladi. Yetti iqlimdan Jo‘ba qishloqni qaytadan bunyod etish uchun yordamga keldilar. Ahmadalining eski dardi tutib (changga algeriyasi bor) qo‘zg‘ay boshladi. Do‘xtirlar havosi toza joylarga ketishni qurilish tugagach qaytib kelishni maslahat berdilar. Yangi Kimsan esa:

“ – Men bormayman, – dedi Kimsan do‘xtirning maslahatini eshitar – eshitmas. – Men shu erda qolaman.

– Men ham ketaman deb joniqayotganim yo‘q, – dedi Ahmadali. – Iloji bo‘lmasa qandoq qilay?

– Sen ketaver, Kimsan, men shu erda Ahmadali bo‘lib qolaman. To‘rt tomoning qibla³⁴.

³³ Do‘stmuhammad H. Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2011. 110- bet.

³⁴ Do‘stmuhammad H. Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2011. 115- bet.

Shunday deb yangi Kimsan Ahmadaliga orqa o'girib oldi. Ahmadali bemajol, bexush Kimsanga mo'ltirab boqar, u o'zini burda-burda qilib tashlangandek sezayotgan edi. Xotini Ma'rifatga posyolkadan uy berilayotganini aytganida katta opasining kapalagi uchib ketganiga Ahmadali unchalik tushunib etmagan, so'ngroq akasidan so'rab bilgach ham o'z uyini tashlab ketishning kasofatini zo'r-bazo'r anglagandek edi. Endi esa hammasini Ahmadalining o'zi fahmlab etgan, zero ezgu haqiqatni har kim o'zi fahmlashi er qimirlashidan ko'ra kuchliroq, qudratliroq hodisa edi. Ahmadali bu voqealarda faol ishtirok etadi. SHuning uchun ham bayonning xotira asosiga qurilgani uncha sezilmaydi. Zamon va makon bugunning nigohi bilan emas, balki aynan voqealar ro'y berayotgan zilzila vaqtidagi va undan keyingi voqealar bilan o'lchanadi.

Qissani o'qir ekansiz, unda boshdan oxirigacha Ahmadali hamda uning "men"i bo'lgan "eski" va "yangi" Kimsan bilan kechgan tasvirlar bahs-dialog turining xarakteristika-dialog shaklidan emas, balki ko'proq dialog- holat shaklidan foydalanilganiga guvoh bo'lasiz. Buning natijasi o'laroq Ahmadali el-yurtga nafi tegadigan, qolaversa, o'z ota-bobolari yashab o'tgan uyni tashlab ketmasligi uni asrab-avaylashi zarurligi haqidagi haqiqatni anglab etganini ko'rish mumkin. Albatta, bu hayotdan shunchaki odam sifatida yashab o'tib ketmasligimiz zarurdir.

"Bahs-dialoglar suhbat mavzusiga qarab falsafiy, ilmiy, maishiy, axloqiy yo'nalishda bo'lishi mumkin"³⁵. Yuqorida biz keltirgan misollar ya'ni "Panoh" qissasidan olingan parchalar ham falsafiy, ham maishiy hamda axloqiy yo'nalishda berilgan.

Tahlil qilinayotgan dialoglarning ushbu shakllari hozirgi o'zbek nasridagi dialoglar bir xil ko'rinishga ega emasligini ko'rsatib turibdi. Nazariy ma'lumotlarga qaraganda xat aslida dialogning yozma shakli bo'lib, buning yorqin namunasi sifatida, X.Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir mening", "Men –

³⁵ Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: "Чўлпон", 2002, 76- б.

sensiz, sen – mensiz” nomli qissalarini aytishimiz mumkin. Chunki bu qissalar bir-biri bilan mantiqiy bog‘liqlikda bo‘lib, boshdan oxirgacha qissalar rassom yigit va uning sevgilisi bilan o‘zaro xat almashishlari asosiga qurilgan. “Hijronim mingdir mening” qissasida 16 marta bir-birlari bilan xat almashishgan. Odatda, xatda suhbatlashayotgan tomonlardan birining ichki va tashqi qiyofasi, xarakteri namoyon bo‘ladi. SHu orqali ular bir-birlarini yanada yaxshiroq bilib oladilar va haqiqiy ishq ahli qatoriga qo‘shiladilar.

Y.Solijonov Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor” romani haqida ham fikr yuritib, mazkur asarida dialogning bayon bilan an’anaviy aloqasi ma’lum darajada “buzilgan” deydi. Ya’ni asar qahramoni Fozilbek uzluksiz o‘ylaydi, o‘zi bilan o‘zi bahsga kirishadi. Fozilbekning fikrlash jarayoni shu qadar uchqurki, makon va zamonni umuman tan olmaydi.

Shunday qilib, “dialog badiiy asarda mustaqil qurilmaga ega bo‘lgan vosita bo‘lishi bilan birga umumiy badiiy inshootning ajralmas bo‘lagi hamdir. U avtor bayoni bilan turlicha munosabatga kirishadi va uning ro‘yobga chiqishida muhim ro‘l o‘ynaydi”³⁶.

1.2. Yozuvchi uslubining o‘ziga xosligi

Yozuvchi uslubini haqida so‘z yuritishdan oldin *uslub* so‘zining etimologik izohi, bu atama anglatadigan ma’no xususida to‘xtalib o‘tamiz.

“*Uslub*” arab tilidan olingan bo‘lib, “*tartib*”, “*yo‘sin*”, “*shakl*” degan ma’nolarni anglatadi.³⁷

E. Xudoyberdievning “Adabiyotshunoslikka kirish” darsligida uslub atamasi quyidagicha ifodalangan: “Tilning alohida ma’no anglatish va ifodalash maqsadlariga xizmat qiluvchi fonetik, leksik, sintaktik vositalari uslub deyiladi”³⁸.

³⁶.Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: “Чўлпон”, 2002. 97- б.

³⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Тўртинчи жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008, 299- бет.

H.Homidiy, Sh.Abdullaeva, S.Ibrohimovalarning hammuallifliklaridagi “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati” da uslubning keng ma’noda yozuvchi ijodidagi g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari birligi deb, tor ma’noda esa, ifoda usuli, tarzi, bayon degan ta’rif keltiriladi. E.Xudoyberdiev darsligida esa, uslubning xilma-xil tushunchaga ega ekanligi ta’kidlanib, uslub “keng ma’noda muayyan davr adabiyoti uslubi, turli xalqlar adabiyotiga xos bo‘lgan uslub (milliy uslub), deyilishi mumkin. Bu atama tor ma’noda bir yozuvchi ijodiga nisbatan ham (Alisher Navoiy, L.Tolstoy, Hamza, Abdulla Qahhor uslubi), nihoyat alohida bir asarga nisbatan ham (Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi yoki Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi uslub) ishlatiladi”³⁹ degan kengroq izohni ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotshunos olim Hamidullo Boltaboev o‘zining “SHarq mumtoz poetikasi” nomli asarida Abdurahmon Sa’diy, Abdurauf Fitratlarning uslub bo‘yicha yozgan nazariy fikrlariga o‘z munosabatini bildirgan.

Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” kitobida nazariy jihatdan chuqur yozilgan qismi uslub haqida bo‘lib, qo‘llanmaning eng ahamiyatli tomoni hisoblanadi. Jumladan, bu bo‘yicha quyidagicha ancha izchil tushuntirishlar bor: “Uslubning adabiyotdagi o‘rni juda katta, juda muhimdir. Bir asardagi fikrlar, ma’lumotlarning eski, boshqa shoirlar tomonidan aytilgan bo‘lishi mumkindir, ularning bizga sezdirmasdan, bildirmasdan ifoda qilib, uni bizga o‘quta olg‘an kuch uslubdir”⁴⁰ A.Fitrat uslubning quyidagi jihatlariga batafsil izoh byergan:

1. Uslubning ishlanishi.
2. Uslubning shakllanishi.
3. Uslubning milliyligi.
4. Uslubning zamonaviyligi.

³⁸.Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент, 2008. 321-б.

³⁹Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент, 2008. 321-б.

⁴⁰А. Фитрат. Адабиёт қоидалари –Тошкент, 1995, 10- б..

5. Uslubning individualligi.

Uslubning ishlanishi hamda shakllanishini mumtoz adabiyotimizda mavjud boʻlgan “Layli va Majnun” dostoni bilan asoslaydi: “buni fors shoirlari necha daʼfalar yozgʻanlardir. Hammasida hikoya birdir, voqea bir turlidir. Biroq forschaturkcha bilgan bir kishi Nizomiyni, ondan keyin Jomiyni oʻqiydir. Xisravga kelgach, Navoiyni albatta ularga tarjiʻ qiladi. Fuzuliyni koʻrgach, Navoiyning “Layli, Majnun”ini tokchaga qoʻyib, Fuzuliyni oʻqishga majbur boʻladir. Mana bular “uslub”ning ishidir”⁴¹.

Abdurauf Fitratning uslubni bu kabi sodda tushuntirishida badiiy asar uslubini yaxlit – badiiy butunlik sifatida talqin qilish va uni boshqa asarlardan farqlovchi “unsur” deb bilish aks etgan. “Shunday xulosa qilishga asos tugʻiladiki, badiiy asar uslubi asarni tashkil etadigan barcha unsurlar tizimi (egʻindisi) emas, balki oʻsha “elementlar sistemasini bir-biriga tutashtiradigan” badiiy qonuniyat – muallifning oʻziga xos prinsipi”dir⁴². Muallif bu tutashtirish jarayonida adib shunday oʻziga xos nuqta va chizgilardan topa bilishi kerakki, u boshqa yozuvchilarda uchramasin, “oʻsha yozuvchining oʻzi shunday koʻrsin, shunday oʻylasin, shunday his etsin va boshqacha xis etishi mumkin boʻlmasin”. Koʻrinadiki, dastlabki tushuncha badiiy asar zaminida ikkinchi istiloh – “adib uslubi” tugʻiladi, bu ikki istiloh oʻrtasidagi nozik ayirmani farqlamay turib, uslubiy tahlilga kirishish nomuvofiq boʻlgani kabi har ikki tushunchani birday qabul qilish ham uslubiy tahlilda koʻp noqulayliklarni vujudga keltiradi. SHuning uchun ham koʻp olimlar ikkinchi tushunchaga nisbatan ijodkor shaxs, ijodiy individuallik (oʻziga xoslik) kabi soʻz birikmalarini qoʻllashni maʼqul koʻradilar.

Abdurahmon Saʼdiy biz bugungi kunda umumxalq tili va badiiy til deb yuritayotgan tillarning farqlangani, qolaversa bular oʻz oʻrnida ikki xil uslubni

⁴¹А. Фитрат. Адабиёт қоидалари –Тошкент, 1995, 10- б.

⁴² Ҳамидулло Болтабоев. Шарқ мумтоз поэтикаси // Тил ва услуб масалалари. – Тошкент, 2008, 323-б.

bildirishini aytadi. “Birinchisi o‘qimishlilar, shoirlar, adiblar tili bo‘lub, ikkinchisi o‘qumag‘anlar yoki oz o‘qumishlilar tilidir. Buni omma tili yoki xalq tili deb yurgizadirlarki, bu ko‘pchilik tili bo‘ladi. Omma tili yozuv tiliga qaraganda juda sodda, juda engil bir tildir. SHuning bilan birga bu til tub so‘zlarga boy bo‘lgan bir tildir. Har xalqning adabiyotida har holda tub tayanchi bo‘lub keladi”⁴³.

Shuningdek, A. Sa‘diy ulsubni “shoir miyasining ko‘lankasi”ga o‘xshatadi va tajribali, katta shoirlar o‘zlarining uslubida o‘zlari ko‘rinadi deydi. Yassaviy, Navoiy va Muhammad Solih kabi chig‘atoy shoirlari, Bobur va Abulg‘ozi kabi muharrirlar o‘zlariga ayrim mustaqil uslubga ega bo‘luvchi olimlar sifatida ko‘rsatadi.

Fitratning uslubga byergan ta‘rifi singari Abdurahmon Sa‘diy ham shoirlarning ko‘plari xalqqa tamom yot bo‘lgan yangi fikrlar, yangi hislar tug‘dirmaydi, balki xalq o‘rtasida ilgari ma‘lum bo‘lgan umumiy fikr va hislar uchun yangi shakllar, yangi jozibali qiyofalar yaratadilar deb hisoblaydi. Ahamiyatli jihati shundaki, Fitrat ham Sa‘diy ham nazariy jihatdan bir gapni ammo o‘z uslublarida uslub mohiyatining ta‘rifini ochib byerganlar. Shuning singari bir asar umrining uzun bo‘lishini ham uslub belgilab beradi. Ayni bir shoirning uslubi ham hamma mavzuda va har vaqt bir xil bo‘lmasligi, mavzu va mundarijaga qarab bir-ikki shoirning uslubi turlicha bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlaydi.

Haqiqatan ham, har bir yozuvchining dunyoni ijodiy o‘zlashtirish davomida orttirgan hissiyotlari tajribasi, olamni o‘ziga xos ko‘rish, idrok etish, tushunish va tushuntirish yo‘li bo‘ladi. Yozuvchining mahorati, tasvirlash san‘ati, roviylik darajasi ham, asosan, shu belgilar badiiylik mezoni sifatida qaraladi. Adib uslubi o‘zbek adabiyotshunosligida nazariy ob‘ekt sifatida chuqur o‘rganilmagan bo‘lsa-da, ma‘lum bir adib ijodi bilan bog‘liq holda o‘sha adibning poetik mahorati, uslubi va tasvirlash san‘atiga bag‘ishlangan anchagina ishlar e‘tiborga

⁴³ Хамидулло Болтабоев. Шарқ мумтоз поэтикasi // Тил ва услуб масалалари. Тошкент, 2008, 346-б.

molik. Bulardan Alibek Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” (1979), M.Qo‘shjonovning “Abdulla Qodiriyning tasvirlash san’ati” (1978), S.Mamajonovning “Uslub jilolari”(1972), M.Sultonovning “Yozuvchi uslubiga doir” (1969) kabi asarlarni eslash mumkin. Ba’zan adabiyotshunos va tanqidchilar bir maqola doirasida ham muayyan adib uslubining o‘ziga xos tomonlarini tushuntira bilganlar. O.Sharafiddinovning “Abdulla Qahhor” portreti, Umarali Normatovning “O‘ziga xoslik sirlari” (Sh.Xolmirzaev haqida), I.G‘ofurovning “O‘rtoq shoir” (M.Shayxzoda haqida) maqolalarini bu o‘rinda eslamaslik mumkin emas.

Hamidullo Boltaboevning o‘zi “davr uslubi istilohi yuqoridagi tushunchalarni, ayniqsa, badiiy asar uslubi va adib uslubini, ularning qatida yotgan betakror o‘ziga xoslik inkor qiladi. Shu bilan birga adabiyotshunoslikda bu istiloh ma’no jihatdan kengaytirilib, keyingi yillar adabiyotiga nisbatan (tadqiq etilayotgan davrdan kelib chiqib) “zamonaviy uslub” shaklida qo‘llanilgani ham ma’lum”⁴⁴ degan fiklarni yozadi.

Darhaqiqat, hayot yozuvchidan o‘ziga muvofiq va muqobil uslubni uslubiy izlanishlar orqali topib olishni taqazo qiladi. Har bir yozuvchi uslubi individual bo‘ladi, ammo u davrning umumiy uslubiga ham moslanadi. Uslub kitobxon yo tomoshabinga ham mo‘ljallanadi. U dastlab o‘z muxlislarini topa olmay qiynalishi ehtimol, ammo oxir o‘z yo‘lini, o‘z kitobxon va tomoshabinlarini albatta topib oladi, bunda u estetik tuyg‘u hosil qilish fazilatiga erishadi.

Chexov bilan Abdulla Qahhorning uslubi bir-biriga yaqin. Bu “uslubiy hamohanglik” mazkur ikki hikoyanavistning adabiy-estetik qarashlaridagi yaqinlik, tildan foydalanishdagi mahorat (qisqalik) bilan izohlanadi.

Erkin Xudoyberdiev yozuvchining o‘ziga xos uslubi tushunchasi deganda, uning ijodiga xos umumiy uslubiy xususiyatlar ham, ayrim asarlardagi o‘ziga xos

⁴⁴ Хамидулло Болтабоев. Шарқ мумтоз поэтикasi // Тил ва услуб масалалари. Тошкент, 2008, 324-б.

tomonlarni nazarda tutadi. Amaliy jihatdan bunday tushunchaga ehtiyoj kattaligining sababini, u adabiy asarlarni va ulardagi unsurlarni o'zaro aloqadorlikda, uzviy birlikda o'rganishga imkon berishi, ayrim asarlardagi o'ziga xos uslubiy xususiyatlarni o'rganmay turib, yozuvchi ijodidagi etakchi tomonlarni, umumiy belgilarni aniqlab bo'lmasligini ta'kidlaydi.

Ko'plab adabiyotshunoslik darsliklarida o'ziga xos uslub deganda, har bir asarning butun bir tuzilishida (tili, syujeti, kompozitsiyasida), mazmundor shaklida ko'zga tashlanadigan o'ziga xos tomonlari tushuniladi. L.Tolstoy uslubi kishilar ruhiyati tahlili sohasida N.G.Chernishevskiy ta'riflagan va L.Tolstoy asarlarining har bir iborasi, leksikasi, voqealari, kompozitsiyasida namoyon bo'ladigan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Erkin Xudoyberdievning "Adabiyotshunoslikki kirish" darsligida ham muallif tomonidan "uslubni muayyan asarning butun badiiy tuzilishida namoyon bo'ladigan g'oyaviy o'ziga xoslik sifatida tushunganda, uni o'sha asardagi yoki yozuvchining butun ijodidagi belgilarning oddiy yig'indisi deb qarash mumkin emas. Aksincha, uslub deganda tanlangan mazmunni muayyan shaklda ifodalashga yordam qiluvchi barcha badiiy vositalarning uzviy munosabatini, o'ziga xos chatishuvini tushunish lozim"⁴⁵ligi ko'rsatiladi.

Yozuvchilarning o'ziga xos uslublari uzoq tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Chunonchi, qadimgi rus adabiyotida o'ziga xos uslublarni farqlash mumkin bo'lmagan. Unda faqat badiiy adabiyot uslubi rasmiy yozishmalardan va cherkov asarlari tilidan ajralib turgan. Faqat XVIII asrga kelib rus adabiyotida uslubiy farqlanishlar (lekin hali umumiy tarzda) yuzaga chiqa boshlagan. Jumladan, muayyan xildagi asarlarga muvofiq hisoblangan va M.V.Lomonosov ta'riflab byergan yuksak, o'rta hamda quyi uslublarni maydonga kelgan. O'sha asr oxirlarida esa Derjavin, Radishchev, Karamzin, Krilov, Fonvizin singari rus yozuvchilari

⁴⁵ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент, 2008. 322-б.

ijodida o'ziga xos uslublar shakllanganligi ko'zga aniq tashlanadi. O'ziga xos uslublarning ravnaqi, rang-barangligi realistik adabiyot taraqqiyoti bilan bog'liqdir.

Realistik yozuvchi uslubi til va nutq hayotda qanday bo'lsa, asarda ham xuddi shunday bo'lishiga ahamiyat beradi. Ayni holda, til bilan bog'liq holda har bir yozuvchining o'ziga xos uslubi borligini ham hisobga oladi. Manbalarda yozilishicha, yozuvchilarning realistik yoki romantikligiga ko'ra realistik va romantik uslub bo'lishi mumkin.

Uslub o'zbek adabiyotshunosligida etarli ishlanmaganligi to'g'risida qayg'urib, E.Xudoyoberdiev uslubni "u "irimlar yig'indisi emas, uni tashqi shakl deb ham bo'lmas, balki dunyoni poetik obrazli tafakkurning eng muhim xususiyatidir. Eng avvalo, uslub mafkuraviy kategoriyadir. Ijtimoiy mazmundan uning g'oyaviy tomoni kelib chiqadi. Uslubga oid, uslubiy masala va qismlar mazmunsiz va g'oyaviyliksiz tarqalib ketadi, ularni ma'no, yozuvchining ifodalangan niyati birlashtiradi"⁴⁶ deb hisoblaydi. Olimning fikricha, uslub estetik qadriyat bo'lib, unga badiiy qonuniyat sifatida ham qaraladi, u, ayni holda, ijtimoiy hodisadir. Uslub estetik kategoriyadir.

Asar tuzilishi uslub ifodasiga ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, ekspressiya, kompozitsiya, tasvir va ifoda, ijodiy metod, adabiy tur va janr, ichki shakl uslubni ifoda etuvchilardir. Ular ham doimo o'zgarib turadilar. Mazmun (mavzu, g'oya, syujet), ichki shakl (obraz, adabiy tur va janr) uslubning unsurlari sifati ko'rsatiladi. Uslub davrdan davrga, yozuvchidan yozuvchiga, yozuvchining asaridan asariga o'tgan sayin o'zgarib boradi.

"Uslub juft kategoriyalarga ham egadir (lirika, epos, drama kabi umumiyroq tushunchalar kategoriyalar deb ataladi). Ular ob'ektiv xususiyatga molikdir. Qarama-qarshi tushunchalar, qat'iy va erkin shakllar, soddalik va

⁴⁶ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент, 2008. 328-б.

murakkablik, dinamiklik va statiklik, ob'ekt va sub'ekt, umum va yakkalik, umumiylik va individuallik uslub kategoriyalari sirasiga kiradi”⁴⁷.

Ilmiy kuzatishlar natijasiga ko'ra, biror-bir narsaning aynan takrori yaratilmagani, ovozlarni, siymolarni, barmoq uchlarining aynan o'xshashi yo'qligi bugungi kunda ko'pchilikka ayon. Amerikalik Vilson Bentleyning 50 yil davomida olib brogan kuzatish va tajribalarining xulosasi asosida qor qalinligi 50 sm bo'lgan har metr kvadratda 1.000.000 dona atrofida qor uchqunlari borligi ham aniqlangan.

Hotam Umurov darsligida yuqoridagi fikrlarning xulosasi sifatida muallif tomonidan quyidagicha xulosaga kelinadi. Ya'ni, “hayotda ikkita bir xil yozuvchi (shoir)ning bo'lishi ham mumkin emas. Chunki yaratilgan har bir insonning ichki va tashqi tuzilishi o'ziga xos bir olamki, uning betakrorligi o'zligida mujassam etilgan. Shunga asosan har bir san'atkorning olami – hayotiy tajribasi, bilim darajasi, didi, go'zallikni ko'ra bilishi, tasavvuri, xayolot dunyosi, qalb ko'zi o'zigagina tegishlidir va ana shu o'zlik uning har bir asarida akslanadi”(H.Umurov). Shuning uchun “Uslub – odam” (Gyote) tushunchasi asosli va hayotiydir. Shunga asosan V.G.Belinskiyning “Yozuvchining mazmun bilan shaklga quyma bir holat bag'ishlay olish qobiliyatini va shu bilan birga hamma-hamma narsaga o'z shaxsi, o'z ruhini takrorlanmas, original muhrini tushirib o'ta olish xususiyatini”, – uslub deb belgilashi to'g'ridir.

Hazrat Alisher Navoiyning “El netib topqay menikim, men o'zimni topmamom”,⁴⁸ – deganlarida chuqur hikmat bor. Mavlono Zahiriddin Boburning:

“Qachonki ko'rgaysan mening so'zimni,

So'zimni o'qib anglaysan o'zimni”, –

deganlarida haqiqat bor.

⁴⁷ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент, 2008. 329-б.

⁴⁸ Навоий А. Ҳикматлар. – Тошкент: Шарқ, 2006, 186- б.

Hotam Umurov fikricha, “adabiyotda uslub faqat “o‘zlik” bilan cheklanmaydi, faqat individual belgilarning yig‘indisi emas. Unda, albatta, “o‘zlik”ni vujudga keltirgan, o‘stirgan ijtimoiy muhitning ta’siri bo‘ladi, unda “shaxsiylik va umumiylik juda murakkab dialektik birlikda bo‘lib, o‘zaro shartlangan, bir-birini ifodalaydigan” tarzda voqe bo‘ladi”. Shunga asoslanib H.Umurov uslubni quyidagi nomlar bilan guruhlaydi:

1. Romantik tasvir uslubi.
2. Realistik uslub.
3. Davr uslubi.
4. Zamonaviy uslub.
5. Milliy uslub.
6. Adabiyot uslubi.
7. Tasviriy san’at uslubi⁴⁹.

Ushbu fikrlardan uslub bir vaqtning o‘zida – mazmun ham, shakl ham, g‘oya ham, motiv ham degan xulosaga kelish mumkin. Bularning narchasi birlashganda asar butunligini uslub ta’minlaydi. Shunga ko‘ra yozuvchi uslubini so‘zga, tilga – ulardan foydalanishdagi o‘ziga xoslikka bog‘lab qo‘yish noo‘rindir. To‘g‘ri, adabiyot – so‘z san’ati, til adabiyotining birinchi elementi bo‘lsa-da, uslubni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri – zaruriy elementi sanaladi.

Uslubni yuzaga keltirishda yozuvchi hayotni, hayotning mohiyatini, uning qa’ridagi haqiqatni tadqiq va tahlil qila bilishi kerak. Bu – uslub uchun eng zarur omillardan yana biridir. Inson ruhiyatining boy va yashirin sirlarini, ularning tub estetik qimmatini kashf etish san’ati – ruhiyat bilimdonligi bilan bevosita aloqadordir.

Demak, uslub – yozuvchining voqelik va insonni idrok qilishi, ularning qalbidagi haqiqatning kashf etishi va uni so‘z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu vazifalarni individual (“o‘ziga xos”) tarzda yaratish san’atidir. Uslub doim

⁴⁹ Umurov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi – Toshkent, 2004, 246-b.

yozuvchi(shoir)ning butun borlig'idan – tabiatidan kelib chiqadi va har bir yaratgan asarida ana shu o'ziga xos olamning hayotbaxsh nurini – insoniylashgan tuyg'ularini tiriltiradi, ko'pga ulashadi, ezgu tuyg'ular tarbiyachisi vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham uslub "kuchsiz adib – yozg'uvchining asarlarida o'zini ochiq ko'rsata olmaydir. Kuchsiz yozuvchilarning uslublari bir-biriga o'xshab qoladir" (Fitrat, 26-bet). "Uslub zamon bilan o'zgargani kabi shaxs bilan ham o'zgaradir. Hatto, yana bir chuqurroq borib, bir kishining sochim-tizim (nasr va nazm – H.U) yozganida ham uslubning o'zgarib qolganini ko'ramiz. Navoiyning uslubi tizimda hashamatli biro hang bilan yuradir, sodhimda esa og'irlashib qoladir. Yana bir ingichkaroq qarag'anda bir shoir uslubining asar mavzuiga ko'ra o'zgarganini ham ko'ramiz. Navoiyning "Layli va Majnun"ida g'i o'ynab qaynag'an uslubini uning "Lison ut-tayr"ida ko'rib bo'lmaydir. Biroq bu o'zgarishlar (ya'ni: asarning shakli yo mavzuiga ko'ra bo'lg'an o'zgarishlar) asosiy emasdir. Navoiy va Cho'lponning uslublari sochim-tizimda, yo mavzuiga ko'ra o'zgarmak bilan ularning "o'zlik" (shaxsiyat)larini yo'qotmaydir. Cho'lponning Cho'lponligi, Navoiyning Navoiyligi bu shoirlarning tizim – sochim asarlarida mavzu o'zgarishiga qaramasdan ko'rinib turadir" (Fitrat, 28- bet).

Hayot yozuvchini boyitgandek, tajribasini oshirganidek uning uslubini ham tobora sayqallashishiga sabab bo'ladi. Lekin yozuvchi "o'zligi" xuddi gen belgilaridek asardan asarga o'taveradi. Shu sabab yozuvchining butun ijodidan kelib chiqib, aniq asarining uslubini aniqlash asosli haqiqatlarning kashfiga olib boradi (Hotam Umurov, 247- bet).

Shaxsiy uslublarning xilma-xil bo'lishiga imkon beruvchi vositalardan biri bu realizm va uning taraqqiyot bosqichlarida maydonga kelgan sotsialistik realizmdir deydi P.Qodirov o'zining "Xalq tili va realistik proza" nomli asarida. SHaxsiy uslub haqida fransuz yozuvchisi Byuffon "Uslub demak – odam

demakdir⁵⁰” degan edi. Byuffon bu erda odam deb yozuvchining o‘z shaxsini nazarda tutadi. Gyote va Byufonning bu boradagi fikrlari ham juda o‘xshash.

Yozuvchining har ijodiy tashabbuskorligi, o‘ziga xos fikr va fantaziyasi, his va tuyg‘ulari uning nimalarni yozganidagina emas, qanday uslub bilan yozganida ham ko‘rinadi. Katta romanlarda har xil xarakterlar tasvirlanadi, turli voqealar ko‘z oldimizdan o‘tadi. Bularning hammasini ichdan birlashtirib, yaxlit bir asar qilib turgan narsa – yagona g‘oya, syujet, kompozitsiya, konflikt va hokazolargina emas.

G‘oya ham, syujet, kompozitsiya va konflikt ham faqat yozuvchining ichki dunyosida bir-biriga payvand bo‘lib yaxlitlashadi. Shu sababli adabiyot nimalaigini yaxshi biladigan kishilar yangi asarni qo‘lga olganlarida undan faqat hayot tasvirlarinigina emas, avtorning o‘zini ham qidiradilar. L. Tolstoy Mopassanning asarlariga yozgan so‘z boshisida bunday deydi: “Yangi avtorning badiiy asarini ko‘rganda yoki o‘qiganda bizning ko‘nglimizda paydo bo‘ladigan asosiy savol hamisha shunday: “Qani, sen qanaqa odamsan? Men bilgan odamlardan qanday farqing bor? Hayotimiz...to‘g‘risida menga nima yangi gap ayta olasan? Yozuvchi kimni tasvirlamasin – ilohiy odamlarnimi, qaroqchilarnimi, shohlarnimi, xizmatkorlarnimi – bularning hammasida biz faqat yozuvchining o‘zini qidaramiz, uning qalbini ko‘ramiz. Agar avvaldan tanilgan keksa yozuvchi bo‘lsa, biz uning asarini o‘qiganda “bu qanaqa odam?” deb o‘tirmaymiz, “qani, menga yana qanday yangilik bera olasan?” endi hayotni qanaqa yangi tomondan yoritib ko‘rsatmoqchisan? degan savol tug‘iladi. Shuning uchun hayotga munosabatda aniq, ravshan va yangi qarashga ega bo‘lmagan yozuvchi... chinakam badiiy asar yarata olmaydi”⁵¹.

⁵⁰ Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент, 1973, 141-б.

⁵¹ Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент, 1973, 142-б.

Har bir asardan muallifning o'zini qidirish – faqat hayotga emas, shu hayotning uzviy qismi bo'lgan yozuvchiga ham chinakam realistik munosabatni ko'rsatadi. L.Tolstoy puch asarlarni mag'zi to'q asarlardan mana shu yo'l bilan ham bexato farq qilgan.

Realizmning asosiy talabi hayot haqiqatlarini iloji boricha to'liq ko'rsatishdir. Yozuvchi bu talabga javob berish uchun voqelikni o'rganish bilan birga, o'zining hamma ichki kuchlarini – xotirasini ham, aqlini ham, qobiliyatini ham, zehnini ham to'liq safarbar etadi. Realizm yozuvchi safarbar etgan hamma ichki kuchlarga bag'rini ochadigan juda keng bir maydon vazifasini o'taydi. Biz bilamizki, avvalgi ijodiy metodlarning hammasiga nisbatan eng bag'ri kenggi va imkoniyati kattasi – realizmdir. Yozuvchi shaxsining butun xususiyatlari, unga xos talantning xarakteri realizm maydonida juda aniq namoyon bo'ladi.

O'zbek nasriga mana shu nuqtai nazardan yondashsak, unda realizmning shakllanish jarayoni A . Qodiriy, S. Ayniy, G'. G'ulom, Oybek, A. Qahhor kabi yirik prozaiklarimizning har biriga xos shaxsiy uslublarning shakllanish jarayoni bialn qo'shilib borganini ko'ramiz. Bu jarayonlarning bir-biriga qo'shilib borishida badiiy tilning ahamiyati juda katta bo'lgan.

Adiblarimizning badiiy quroli bo'lgan til inqilobdan so'ng jonli xalq tili asosiga o'tishi bilan so'z san'atkorlarining imkoniyatlari nihoyat darajada kengaydi. Buni Pirimqul Qodirov A. Qodiriyning inqilobdan oldin yozgan "Juvonboz" hikoyasini va "Millatimga" she'rini o'qiganda, ularning tili xiyla nursizlanganligini, o'sha yillarda yaratilgan jadidona asarlarining ko'pchiligi bir-biriga o'xshashligi bilan asoslaydi.

Pirimqul Qodirov til va unga bo'lgan munosabatlar haqida o'zining ko'plab fikrlarini bildirgan ijodkorlardan. Yozuvchi til va shaxsiy uslub masalalari to'g'risidagi fikrlarini davom yettirib, "eski kitobiy til ham yozuvchining o'ziga xos shaxsiy uslubini va takrorlanmas badiiy "hidi"ni aniq his qilish imkonini bermas edi. Bir-biriga o'xshaydigan standart jumlar, balandparvoz trafaretlar bilimdon odamlarning hammasi uchun umumiy bir uslub xizmatini o'tar edi" deydi.

Haqiqtan ham, bu sharoitda shaxsiy uslubning yaxshi taraqqiy eta olmasligi o'z-o'zidan ma'lum.

Jonli xalq tilini olsak, har bir qishloq tilida o'ziga xos uslubiy belgilarni topamiz. Ayrim tumanlar shevalaridagi o'ziga xoslik bundan ham yorqinroq. Tilshunos olimlarimizning tadqiqotlarida bu hodisalar juda atroflicha o'rganilgan. Toshkent, Samarqand, Xorazm, Buxoro, Farg'ona, Andijon, Namangan, O'sh, Vodil, Qorabuloq, Marg'ilon, Jizzax, Baxmal, SHahrisabz, SHERobod va boshqa o'nlab shahar-qishloqlar shevalari jonli o'zbek tilining so'zlashuv uslub va talaffuzlari naqadar xilma-xil ekanini ko'rsatadi.

Albatta, shevalarga xos so'zlash uslubi bilan yozuvchining qalamiga xos uslub orasida juda ko'p farq bor. Ammo bitta umumiylik shuki, shevalar xalq hayotiga va mehnat jarayonlariga juda yaqin turganligi uchun har bir joyning o'ziga xos "hidi"ni bevosita his qilish imkonini beradi. Realist yozuvchi ham hamisha xalq hayotiga yaqin bo'ladi, voqelikda yuz berayotgan jarayonlarni ularning o'zlariga mos so'zlar bilan tasvirlashga intiladi. Har bir shevani o'ziga xos qiladigan asosiy omil realist yozuvchida ham bo'ladi va uning o'ziga xos uslubini taraqqiy yettirish imkonini beradi.

"Shuni ta'kidlab aytish kerakki, o'ziga xos yorqin uslub o'rtamiyona avtorlarda uchramaydi. Uslub – faqat mashq natijasida o'zlashtiriladigan adabiy usullar yig'indisi emas"⁵². Olim buning uchun odamda o'ziga xos estetik konsepsiya va yaratuvchanlik, ijodkorlik quvvati bo'lishi kerak.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, uslub – yozuvchining talanti va tabiatidan kelib chiqadi va bevosita badiiy tilda aks etadi. Uslub – yozuvchi tanlagan mavzuga ham, xarakterlarga ham, boshqa hamma komponentlarga ham ta'sir qilishi shubhasiz. Lekin bu ta'sir hamisha badiiy til vositasi bilan amalga oshadi. Chunki badiiy til, M.Gorkiy aytganiday, adabiyotning asosiy quroli. Yozuvchi bu quroldan qanday foydalanishi uning uslubini belgilaydi.

⁵² Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент, 1973, 143-б.

Qolaversa, stilistika fani orqali adabiyotshunoslikning tilshunoslik bilan aloqasini ko‘rish mumkin. Aslida ham “stilistika fani fikr ifodalash, borliqdagi voqea-hodisalarni tasvirlashda muallif munosabatini ifodolovchi fan sifatida til va adabiyot sohalarini o‘zaro umumlashtiradi”⁵³. Aynan mavzuimizga bog‘liqlik jihati bo‘yicha, stilistika alohida yozuvchilar uslubini, ularning nutqiga xos neologizmlar, badiiy obrazlar va tasvir bayoniga taalluqli bo‘lgan uslubiy jihatlarini ham o‘rganadi.

⁵³ Ҳақимов М, Зокиров М ва б. Тил назарияси ва амалиёти – Фарғона, 2016.

Bob bo'yicha qisqa xulosa:

1. Badiiy nutq masalasiga qadimgi davrda ham arab olimlarining xuddi badiiy matnning o'ziga bo'lgani kabi xolis va jiddiy qarashlar mavjud bo'lgan. Jumladan, buyuk vatandoshimiz Yusuf Sakkokiy, arab olimlaridan Johiz, Ibn Mu'tazz va Qudama ibn Ja'far ta'limotida ko'rish mumkin.

2. Badiiy asar tilining tarkibiy qismlari to'g'risidagi ma'lumotlarning deyarli barchasida eng muhim bo'lgan ikkita asosiy qism: muallif nutqi va personaj nutqi kabi turlarga ajratildi. Professor Y.Solijonov badiiy asar tili vazifasi jihatidan kimga daxldorligiga ko'ra avtor nutqi, dialog, monolog, ichki nutq, o'zganing nutqi kabi turlarga ham bo'ladi. Tahlil natijalari nutq tiplari va uning shakllari hozirgi o'zbek nasrida turli-xil ko'rinishlarga egaligini ko'rsatadi.

3. Arab tilidan olingan bo'lib, "*tartib*", "*tizim*", " degan ma'nolarni anglatadigan "*uslub*" har bir yozuvchida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ya'ni uslub ijodkorning umumiy saviyasidan, badiiy mahoratidan dalolat beradi.

4. Yozuvchilarning o'ziga xos uslublari uzoq tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Chunonchi, qadimgi rus adabiyotida o'ziga xos uslublarni farqlash mumkin bo'lmagan. Unda faqat badiiy adabiyot uslubi rasmiy yozishmalardan va cherkov asarlari tilidan ajralib turgan. Faqat XVIII asrga kelib rus adabiyotida uslubiy farqlanishlar (lekin hali umumiy tarzda) yuzaga chiqa boshlagan. adabiyot taraqqiyoti bilan bog'liqdir.

5. Manbalarda yozilishicha, yozuvchilarning realistik yoki romantikligiga ko'ra realistik va romantik uslub bo'lishi mumkin. Realistik yozuvchi uslubi til va nutq hayotda qanday bo'lsa, asarda ham xuddi shunday bo'lishiga ahamiyat beradi. Ayni holda, til bilan bog'liq holda har bir yozuvchining o'ziga xos uslubi borligini ham hisobga oladi.

IKKINCHI BOB

QAHRAMON NUTQI VA MILLIYLIK

2.1. Milliylikni ta'minlovchi omillar

Badiiy adabiyotda milliylik va umuminsoniylik mavzusi haqida soʻz ketganda, eng avvalo, “adabiyot – millat koʻzgusi” taʼrifiga alohida eʼtibor qaratiladi. Shuningdek, har qanday adabiyot oʻzi xizmat qilayotgan millatning koʻzgusi ekanligi taʼkidlanadi. SHu jihatdan buyuk mutafakkir Abdulla Avloniyning “Har bir millatning borligini koʻrsatadurgon oyinai hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yoʻqotmak millatning ruhini yoʻqotmakdir” deb aytgan fikrlarini eslash oʻrinlidir. “Har qanday milliy adabiyot ayni chogʻda umuminsoniy xaraktyerga ega adabiyot sifatida namoyon boʻladi. Chunki har bir millat oʻzining hayot tarzini, intilishini boshqa millatlardan uzilgan holda tasavvur etolmaydi”⁵⁴. Haqiqatan ham, milliylik va umuminsoniylik har bir xalq adabiyotshunosligining eng muhim va dolzarb mavzularidan hisoblanadi.

Quyidagi xususiyatlar badiiy adabiyotning milliylikni taʼminlovchi omillar sifatida beriladi:

1. Milliy til.
2. Milliy xarakter.
3. Milliy psixologiya.
4. Milliy-axloqiy qoidalar.
5. Urf-odat va kiyim-kechaklar.
6. Etnografik oʻziga xoslik.
7. Milliy peyzaj.

⁵⁴ Solijonov Y. Badiiy adabiyotda milliylik va umuminsoniylik // Maʼruza matni., Fargʻona, 2017.

Adabiyotda xalq hayotini aks yettirish, ijtimoiy turmushdagi milliy, umuminsoniy jihatlarni badiiy ifodalashga nisbatan tabiiy bir hodisa sifatida qaraladi. T. Boboev milliylik va umuminsoniylik nafaqat ijtimoiy hodisa, qolaversa, bu tushunchalar adabiyot ruhida chuqur iz qoldirishini inobatga olgan holda, estetik hodisa ekanligini ta'kidlaydi. "Milliylik va umuminsoniylikning estetik kategoriya sifatidagi mohiyatini to'g'ri anglamay turib, badiiy adabiyotning umumiy qonuniyatlarini, o'ziga xosligini, ijtimoiy-estetik vazifasini – hayot bilan adabiyot o'rtasidagi dialektik munosabatni tushunish mushkul"⁵⁵. Milliylik va umuminsoniylik bir-birini to'ldirib turuvchi o'zaro uzviy aloqadagi tushunchalardir.

Nemis shoiri Byuxer adabiyotning millat oldida turgan tarixiy vazifalar, xalqning milliy manfaatlarini adabiyotning milliy mazmuni deb hisoblagan.

T. Boboevning "Adabiyotshunoslik asoslari" nomli darsligida "Til – badiiy adabiyotning milliy shakli" degan ta'rifni uchratamiz. Professor Y.Solijonov ham milliylik eng avvalo, tilda namoyon bo'lishini ta'kidlab, akademik shoir G'.G'ulomning "Men o'zbek shoiriman – o'z xalqimning tiliman" deya o'zbek millatining shoiri ekanligidan faxrlanishini aytadi. SHu bilan birga "Tildagi milliylik ijodkor tomonidan xalq tili boyligidan unumli foydalanishidagina emas, nutq manzarasida, talaffuzi va ohangida, fonetikasi va leksikasida, uslubiy jilolari-yu badiiy tasvir vositalarida mavjud bo'lgan imkoniyatlardan o'rinli hamda unumli foydalana olishida ham ko'rinadi" deya ta'kidlaydi.

Adabiyot xalqning hayoti, kasb-kori, ijtimoiy ongini aks yettirish yo'li bilan uning milliy xarakterini ifodalaydi. Adabiyotning milliy xususiyatlari: millatlar hamda xalqlarning o'ziga xos alomatlar; ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-geografik, ruhiy xususiyatlari; qahramonlarning tili, tashqi ko'rinishi, kiyim-kechagi, urf-odati; xalqning ijtimoiy va siyosiy hayoti, uning ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi, milliy manfaatlarini nechog'li aks yettirganligi bilan aniqlanadi.

⁵⁵ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, 2002, 85- bet.

Er yuzida qancha millat, qancha elat bo'lsa, shuncha fikrlash tarzi, shuncha xilma-xillik mavjud. Buni bilish va amaliy faoliyatda inobatga olish esa doimo muhimdir. Zero, "...fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi ma'rifiy jamiyatgagina xos bo'lib, muayyan haqiqatni turlicha tamoyil ustivor bo'lgan shart-sharoitni e'tirof etadigan va o'z g'oyalarini shu mezonlar asosida rivojlantiradigan mafkura ilg'or, kuchli va hayotbaxsh bo'ladi..."⁵⁶

Professor S.Mo'minov hamda M.Toshtemirov hammuallifligidagi "Xalq ruhiyati va nutqning aktual bo'linishi" nomli maqolada mavzumizga oid quyidagi jumalarni o'qiyimiz: "Nemislar aniqlikni, lo'ndalikni yoqtirganliklari uchun fikrni ham ixcham bayon etishga, gapni asosiy maqsadni bayon etishdan boshlashga harakat qiladilar. Bunga ularning gap qurilishidagi tema-rematik munosabatlari misolida ham aniq ishonch hosil qilinadi. Qizig'i shundaki, o'zbeklar nutqida ancha faol qo'llanadigan "chaynalmay gapir", "gapning berdisi"ni aytib qo'ya qol, "ezmalanma" kabi so'z va iboralar nemislar nutqida deyarli uchramaydi. Chunki badiiy usulda so'zlash nemislar ruhiyatiga yot narsadir"⁵⁷. Demak, har bir millatning o'ziga xosligi hattoki gap qurilishlariga ham ta'sir etadi.

Milliylikni ta'minlovchi omillar sifatida berilgan milliy xarakter ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Milliy xarakter deganda, ma'lum ijtimoiy guruh (millat) o'rtasida asrlar mobaynida avlodan-avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklar majmui tushuniladi. Milliy xaraktyerga mazkur millat aholisi sig'inadigan din, ijtimoiy turmush tarzi va atrof-muhit jiddiy ta'sir ko'rsatadi va bu ta'sir o'z-o'zidan muloqotda namoyon bo'ladi. Muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Er yuzi tabiati naqadar rang-barang va xilma-xil bo'lsa, unda yashovchi aholining etnik tuzilishi ham shu qadar turli-tumandir. Dunyoda har tomonlama bir-biriga aynan o'xshash ikkita odam yo'q. Yuqorida sanab o'tilgan omillar

⁵⁶ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.

⁵⁷ Мўминов С., Тоштемиров М. Халқ руҳияти ва нутқнинг актуал бўлиниши // Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2001.

ta'sirida har bir millatning alohida bo'rtib turadigan o'ziga xos xarakter xususiyatlari bo'ladi. Turli millat vakillari o'rtasida bo'ladigan o'zaro muomala chog'ida bu kabi jihatlarni inobatga olmaslik turli tushunmovchilik, kelishmovchilik, hatto to'qnashuvlarni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin.

Bu haqda V. A. Suxarev o'zining "Ishbilarmon kishining etika va psixologiyasi" nomli kitobida g'arbiy Evropa dorishunoslik kompaniyasi faoliyatida ro'y byergan bir hayotiy misolni keltiradi. Unda kompaniya Evropa mamlakatlarida yaxshigina xarid bo'lgan og'riq qoldiruvchi preparatni arab davlatlariga ham sotish uchun olib borgani, ammo dastlabki kunlari arab xalqlari bu preparatni umuman sotib olmaganlari haqida hikoya qilinadi. Keyinchalik maolom bo'lishicha, hamma ayb kompaniya preparatni reklama qilishda arab xalqlari milliy o'ziga xosligini inobatga olmaganligida ekan. Chunki uchta rasmdan iborat reklamaning birinchisida ayol kishining og'riqdan baqirayotgani, ikkinchisida preparatni qabul qilayotgani, uchinchisida esa darddan forig' bo'lib, yaxshi kayfiyatda turgan holati tasvirlangan va bu rasmlar tvropaliklar udumiga ko'ra chapdan o'ngga qarab ko'riladigan qilib qo'yilgan ekan. O'ngdan chapga qarab yozadigan arablar rasmlarni ham shunday tartibda ko'rganliklari uchun kompaniya reklamasi ularga mutlaqo teskari ma'lumot byergan va shuning uchun ular preparatni sotib olishmagan ekan⁵⁸.

Shunga o'xshash voqea o'zbek va boshqa millat kishilari hayotida ham bo'lib turadi. Bir do'stimiz Farg'ona shahrida bo'lib o'tgan bir voqeani shunday hikoya qilib byergan edi: "Uyimizda rus millatiga mansub televizior tuzatadigan usta ishlayotgan paytda kutilmaganda hiqichoq tutib qolibdi. Dadam rus ustaga "nima o'g'irlading?" degan ekan, u: "men senga yaxshilik qilgani kelsam, sen meni o'g'ri qilding", - deb televizorni tuzatmay chiqib ketibdi. Dadam bizning odatimiz shunday, desa ham, u yolg'on gapiryapsan, deb ishonmapti..." Ma'lumki, o'zbeklarda hiqichoq tutayotgan kishiga "nima o'g'irlading?" deb qo'yish odati

⁵⁸ Каранг: Сухарев В. Этика и психология делового человека. – М.: Грнд, с.121.

bor. Qo‘qisdan shunday deyilsa, hiqichoq birpasda bosilib qoladi va kulgi ko‘tariladi. Buni bilmaslik esa o‘zaro tushunmovchilikni keltirib chiqargan.

Nolisoniy vositalarni qo‘llashda ham milliy o‘ziga xosliklar ko‘p kuzatiladi. Jumladan, “shunday imo-ishoralar borki, ular shartli xaraktyerga ega bo‘lib, milliy xususiyatlar kasb etishi mumkin. Chunki u jamoa tomonidan ma‘lum ma‘noni ifodalash simvolidir. Boshqa bir jamoada esa bu ishora yo hech qanday kommunikativ vazifa bajarmaydi yoki boshqa ma‘noni anglatishi mumkin. Masalan, “xayr” ma‘nosini ifodalash uchun ruslar kaftini o‘zidan orqaga qilib vertikal holatda takror-takror silkitsa, italyan kaftini o‘ziga qaratib vertikal holatda silkitadi”⁵⁹.

Quyida o‘zbek milliy xarakteri uchun xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbek xalqi asrlar mobaynida o‘ziga xos xilma-xil urf-odatlar va marosimlarni yaratdi. Avvalo, shuni aytib o‘tish kerakki, asrlar davomida bir makonda aralash yashab kelgan Markaziy Osiyo xalqlarining an‘analari va urf-odatlarida o‘xshashliklar ko‘p. Turli tarixiy davrlarda O‘zbekistonning tub erli turg‘un aholisiga kelib qo‘shilgan qabila va elatlar o‘troqlashib, o‘zbeklarning udumlarini qabul qilganlar va unga o‘z hissalarini qo‘shganlar.

Qadimdan an‘ana bo‘lib kelgan hashar, mehmondo‘stlik, kattalarni hurmat qilish o‘zbeklar xarakterining eng muhim xususiyatlaridan sanaladi.

Hasharning oilaviy, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla-ko‘y va hatto mamlakatlar miqyosida o‘tkaziladigan turlari mavjud. Oilaviy hasharlar ko‘pincha imorat tiklash ishlarida qavm-qarindoshlar ishtirokida o‘tkaziladi. Qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida bo‘ladigan hasharlarda ko‘pgina dala ishlari, ekin-tikin, uy qurish, hovli devorini ko‘tarish, to‘y-hasham ishlari bajariladi. Odatda, hasharga aytilgan kishilarning kelishi shart bo‘lgan. Uzrli sabab bilan kelolmay qolgan kishi

⁵⁹ Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. – Андижон, 1980, 10-б.

hasharchilar uchun taom pishirib chiqargan yoki keyinchalik fursat topib, bir kun ishlab byergan.

Sharq xalqlarimizda, jumladan, o‘zbek xalqida mehmondorchilik odati ham keng tarqalgan. Ibtidoiy (urug‘chilik)davrida shakllangan mehmondorchilik odati hayotiy zaruratlar bilan bog‘liq bo‘lganligidan barcha ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarni o‘tib hozirga qadar etib kelgan.

Mehmon odatda mehmonxona (mehmon kutib olish uchun qurilgan maxsus xona) yoki uyning to‘risiga o‘tqaziladi. Mehmon begona kishi bo‘lishi ham mumkin. Bunday mehmon ko‘pincha mo‘ljallangan manzilga etolmay, kech-qorong‘uda qolgan, qor-bo‘ronga uchragan, yo‘ldan adashgan bo‘ladi. Qishloqqa (mahallaga) kelgan yo‘lovchi to‘g‘ri kelgan uy oldiga to‘xtab, eshigini qoqqan. Uy sohibi chiqqach, “mehmon qabul qilasizmi?” deb so‘raydi. Mezbon “mehmon atoyi xudo” - “mehmon xudo ato etgan kishi, albatta qabul qilamiz”, deb u bilan ko‘rishgach, uyga taklif qiladi. Agar xonadon sohibining uzrli sababi (azadorlik, og‘ir bemor kishisi va h.k.) bo‘lsa, o‘z uzrini aytib, “boshqa xonadondan iltimos qiling” qabilida javob qilingan. Kelgan mehmondan mazkur xonadon sohiblari oldinlari ko‘p yomonlik ko‘rgan bo‘lsalar ham baribir mehmondorchilik udumiga rioya qilinavyergan⁶⁰. Shuning uchun ham o‘zbeklarning mehmon kutish va kuzatishdagi o‘ziga xosliklari to‘g‘risida o‘nlab maqola va kitoblar yozilgan⁶¹. Oybekning “Navoiy” romanida Ulug‘ mutafakkir shoir Navoiy xonadoni hamisha mehmonlar bilan gavjum bo‘lar va ul zot ham bu an’anaga hamisha amal qilganlar. SHunday mehmondorchiliklarning birida “...Muhrdor shoir uy sohibi bo‘lganlikdanmi yoki kamtarlikdanmi, hammadan pastda o‘tirdi”⁶².

⁶⁰ Ўзбекистон Республикаси: Энциклопедия. – Тошкент: Қомуслар Бош тахририяти, 1997, 589- б.

⁶¹ Ўзбек меҳмоннавозлигининг нафосати, одоб ва этикодий томонлари тўғрисида қаранг: Маҳмудов К. Меҳмоннома. –Тошкент: Ёш гвардия, 1989.

⁶² Oybek. Navoiy. Toshkent: Sharq, 2004, 35-bet.

Kattalarni hurmat qilish Sharq xalqlarining, jumladan, o‘zbeklarning qadimiy udumlaridan biri bo‘lib, bu odat ibtidoiy jamoa tuzumi davridan davom etib kelmoqda.

Kattalarni hurmat qilish, yoshlarni izzat qilish Sharq xalqlarining, jumladan, o‘zbeklarning qadimiy udumlaridan biri bo‘lib, bu odat ibtidoiy jamoa tuzumi davridan davom etib kelmoqda.

– *“Kaminaning shogirdlaridan, - dedi iftixor bilan Fasihiddin. Zamonamizning Abu Ali Ibn Sinosi bo‘lishiga kaminada also shubha yo‘q.*

– *Hurmatli ustodim kamina shogirdlari haqida g‘oyat mubolag‘a etdilar, - qo‘llarini qovushtirgan holda kulgansimon dedi Sultonmurod. Navoiy do‘stona tabassum va iliqlik bilan sultonmurodga murojaat etib, uning qaerlik ekani, qanday ilmlarni o‘tgani va hokazo haqida surishtirdi. Sultonmurod haqiqatni yashirmadi. O‘zi chuqur egallagan ilmlarni, bir qadar kamtarinlik bilan aytib berdi. Bu vaqtda atrofga to‘plangan va Sultonmurodni taniydigan ba‘zi mudarrislar ham uning to‘g‘risida biron nima deyishdi.*

– *Himmat va g‘ayratni also qo‘ldan bermang, - dedi Navoiy suyunib. – el, ulus sizdek zotlarga g‘oyat muhtojdir. Ilm daraxtini yaxshi parvarish etib, yurt tuprog‘iga chuqur tomir yoydirmog‘imiz va undan mo‘l hosil olmog‘imiz kerak. Mana endi oshino bo‘ldik. Umid qilamenki, bizni hamisha yo‘qlab turursiz.*

– *Iltifotingiz uchun qalbimdan tashakkur etamen, - dedi Sultonmurod titroq ovoz bilan. – Sizning ma‘rifat daryongizdan bahramand bo‘lmoq qadar ulug‘ saodatni tasavvur etmoq imkonsizdir... ”⁶³.*

Uzundan-uzoq ko‘chirilgan bu parchada suhbatdoshlarning har birida, Sultonmurodning qo‘llarini qovushtirgan holatda turishi, Navoiyning yosh shogirdiga shunchalar ehtirom ko‘rsatishi, qolaversa, titroq ovozda

⁶³ Oybek. Navoiy. – Toshkent: Sharq. 2004, 34- bet.

Sultonmurodning javob qaytarishida o'ziga xos milliy xarakter chizgilari ayon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy obrazi bizni muloqot chog'ida dunyoning eng sirli mo'jizasi hisoblangan so'zga ehtiyorkor bo'lishga undaydi. Qolaversa, bu obraz orqali muallif hamisha xalq manfaatlarini o'ylovchi, yoshlarni ilmi bo'lishida ko'makdosh, ma'rifatparvarlik, kamtarlik kabi milliy xarakter sifatlarini ulug'laydi.

Bulardan tashqari, nonni e'zozlash, yoshlarni izzat qilib, ularni odob-axloq ruhida tarbiyalash, tabiatni ko'z qorachig'iday asrash kabi odat va qadriyatlar ham o'zbeklar xarakterining muhim qirralaridir.

O'zbek xalqida insonning o'limi va dafn marosimlari odatlari bilan bog'liq bir qancha marosimlar bo'lib, yig'i marosimi muloqot xulqi bilan juda yaqinligi uchun u haqda qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Ko'p erlarda, ayniqsa, qishloq joylarda yig'i marosimi odat tusiga kirgan bo'lib, o'ziga xos tartibda o'tadi. Ayollar yakka tarzda yoki bir-birlari bilan ko'rishib yoki davra qurib o'tirib (ko'pincha tik turib) yig'laydilar. Odatda, qishloqda, shahar mahallalarida aza qo'shig'ini aytuvchi yig'ichi (go'yanda) ayollar bo'lgan. Ta'ziya marosimida yig'inni go'yanda boshlaydi. Aytuvchi o'rtaga tushadi va vafot etganning belbog'i, marhum ayol kishi bo'lsa ro'molini bo'yniga tashlab, uning yaxshi xislatlarini, tirikligida qilgan ishlarini yaqinlari tilidan ta'sirli qilib aytib yig'laydi.

Yig'ining ikkinchi ko'rinishi sadr (sadr tepish) nomi bilan ma'lum. Bunda marosimga yig'ilgan ayollar tik turib, davra qurib yig'laydilar. Aytuvchi davraning o'rtasida bo'ladi, u bilan davra ichida shu xonadonning alamzada ayollaridan biri (onasi, xotini, qizi va b.) ham bo'lgan. Ko'p joylarda, masalan, O'zbekistonning janubiy viloyatlarida erkaklar ham sadr tepganlar. Ammo boshqa viloyatlarda sadr tepish kam uchraydi. Bu masalada qishloq va shaharning anchagina farqi bor. Ya'ni erkaklar tomonidan sadr tepish, marhum yotgan xonaga "otam-ma", "onam-

ma”, “akam-ma” va h.k. deb yig‘lab kirish ko‘proq qishloqliklar udumiga mos bo‘lib, shaharlarda bunday odat deyarli uchramaydi⁶⁴.

O‘zbek xalqi hayotida amal qilinadigan tartib va qoidalar xalq an‘analari hamda islom dini va shariat asosida yuzaga kelgan, albatta. Chunki odob-axloqqa oid kitoblarda ham, kattalar tomonidan yoshlarga qilinadigan pand-nasihatlarda ham muqaddas Q u r o o n i karim, Hadisi sharifga tayanilgan. Jumladan, XII asrning boshlarida Muhammad Sodiq Koshg‘ariy o‘zining “Odob-as-solihin” (“Yaxshi kishilar odobi”) kitobida bu haqda shunday yozadi. “Bas, tolibi sodiqlar... odobi zohiriy va odobi botiniyni bilib, anga amal qilmoqlari lozim keldi, toki bular ham talabi suluk (yo‘l)larini foyda topib, ulug‘lar martabalariga etgaylar va ushbu nusxada zaruriy odobi zohir va botiniy qutubi mo‘tabarlari (mo‘tabar kitoblar)din jamo qilindi...”⁶⁵.

Bundan musulmon xalqlari axloqiga islom dini qonun-qoidalari mazkur kitobga o‘xshash adabiyotlar orqali singdirib borilgani ma’lum bo‘ladi. Jumladan, ushbu kitob birinchi bob, birinchi faslida kishilar huzuriga kirmoqlik odobi xususida so‘z yuritilib, quyidagilar bayon qilinadiki, ularning hammasi islom dini qonun-qoidalari bilan bevosita bog‘liqdir: “...har kim bir kishining eshigiga borib kirmak istasa, avval ul kishiga o‘zining kelganini eshikni orqasidan bildirg‘ay, ushbu tariqadaki, eshikni ohista qoqq‘ay yo so‘rfa qilg‘ay (yo‘talgay). ... agar ovoz chiqsa, eshikni orqasidin anga salom berib, ayg‘ayki: “Ichkari kiraymu?” Bu izn tilamoq to uch marotabag‘achadur. Har izn tilagandan so‘ng to‘rt rakaat namoz o‘qumoq miqdori tavaqquf qilg‘ay (ya’ni kutib turg‘ay)”⁶⁶.

Bu o‘rinda yo‘qlab kelingan mezbon chaqirilgan paytda namoz o‘qiyotgan bo‘lishi mumkinligi inobatga olinib, to‘rt rakaat namoz o‘qimoq vaqt o‘lchov birligi sifatida keltirilmoqda.

⁶⁴ Nasриддинов Қ. Ўзбек дафн ва таъзия маросимлари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1996. 35-51- бетлар.

⁶⁵ Muhammad Sodiq Koshg‘ariy. Yaxshi kishilar odobi // SHarq yulduzi, 1990, 5-s., 89- b.

⁶⁶ Muhammad Sodiq Koshg‘ariy. Yaxshi kishilar odobi // Sharq yulduzi, 1990, 5- s., 89- b.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, milliy xarakter va ijtimoiy muhit faqat din ta’siridagina shakllanib qolmay, unga atrof-muhit, turli ijtimoiy guruhlar, ya’ni ijtimoiy ekologiya ham ancha kuchli ta’sir etadi.

2.2. Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida qahramon nutqi va milliylik elementlari

So‘nggi yillarda yozilib, kitobxonlar e’tiboriga tushgan asarlar o‘zbek adabiyotida yozuvchilik matonati va mas’uliyatini anglagan adiblar kam emas, degan fikrga asos bo‘la oladi. Bu adiblar, nazarimizda, Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon jasoratining davomchilari bo‘lib ko‘zga tashlanmoqda. Mana shunday ijodkorlardan biri Xurshid Do‘stmuhammaddir.

Xurshid Do‘stmuhammad milliy adabiy an’analarni ham, dunyo adabiyoti tajribalarini ham puxta o‘zlashtirgan, doimiy izlanish, so‘z va fikr qolipini yangilashga intilgan ijodkordir. Adibning o‘zi e’tirof etganidek, “Uslub o‘zgarmasa, dunyoqarash, hayot murakkabliklarini badiiy idrok va ifoda etish yo‘sinlari o‘zgarmasa, shu yo‘lda turli tajribalarga qo‘l urmasa, bunday yozuvchi nafaqat milliy adabiyotda, loaqal o‘z ijodida ham biror bir yangilik yaratishi amrimahol”⁶⁷.

Nutq va uning inson shaxsiyati bilan bog‘liqlik xususiyatlari haqida mutafakirlar turli zamonlarda turlicha, ammo mantiqan bir-biriga yaqin fikrlarni bayon etganlar. Jumladan, mavlono Jaloliddin Rumiy mashhur “Ichindagi ichindadir” nomli falsafiy asarida “Insonni tanimoqchi bo‘lsang, uni gapga sol: so‘zidan uning kim ekanligini bilib olasan”⁶⁸ degan bo‘lsa, Mir Alisher Navoiy “Nazmul-javohir” asarida nazmiy shaklda:

⁶⁷ Rajabova O. Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida ijodiy individuallik. – Nukus, 2015.

⁶⁸ Румий Ж. Ичиндаги ичиндадир. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.

“Fahm ayla kishi holin so‘z demagidin
Kim, berdi xabar hadisi ko‘nglidagidin”⁶⁹

deya lutf qiladi.

Mashhur rus bolalar adibi Korney Chukovskiy esa bu haqda “Nutq har birimizni har qanday pasportdan ko‘ra yaxshiroq ko‘rsatadi” deydi.

Badiiy asar qahramonlarinig nutqi yozuvchi tomonidan juda katta mahoratni talab etadi. Mahoratli adiblarning hayotning tom ma’nodagi in’ikosi sifatida yaratadigan badiiy asarlari personajlari nutqida ham ularning ijtimoiy belgilari yaqqol aks etib turadi. Odatda, qahramonning individual tili uning o‘z hayot tajribasi, dunyoqarashi, fahm-idroki, xulq-atvori, madaniy saviyasi, psixologiyasi va kasb-korini ochiq-oydin namoyish qiladi. Yozuvchilar qahramonning so‘zlash tarzini, o‘ziga xos ohangini qisqa va lo‘nda jumalardan tashkil topgan suhbatlar, dialoglar, monologlar orqali tasvirlashga, qahramon xarakteridagi belgilarning shakllanishini uning orqali aks yettirishga alohida e’tibor beradilar. “Demak, yozuvchilar personajlar nutqi orqali ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, ruhiy dunyolarini, yashash tarzlarini, xarakterlarning mantig‘ini, muayyan sharoit uchun aloqador jihatlarini ochib beradilar. SHunga ko‘ra personajlar nutqi qahramonlarni alohidalashtirish vositasi hisoblanadi”⁷⁰. Fikrimizni zamonamizning etuk adiblaridan biri Xurshid Do‘stmuhammadning “Nigoh” qissasi personajlari nutqi va ularga muallif tomonidan berilgan izohlar asosida isbotlashga harakat qilamiz.

Qissa qahramoni – tramvay haydovchisi Bek va uning xotini Zamira o‘rtasidagi dialogga e’tibor qarataylik:

⁶⁹ Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томли. Ўн бешинчи том. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт нашриёти, 1968.

⁷⁰ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент, 2008, 118- б.

– Yo‘linga “Volga” tushib, to‘satdan to‘xtab qoldi, – *dedi Bek o‘ziga daxlsiz hodisani hikoya qilayotganday xotirjamlik bilan.* – Tramvay yo‘liga ajal etaklaganmi, bilmadim...

Xotini dik etib o‘rnidan turdi, qoshlari chimirildi, to‘satdan uning ko‘zlarida paydo bo‘lgan xavotir nimasi bilandir “Volga”dagi ayolning qo‘rquv to‘la qarashiga o‘xshab ketdi. “Xotinlar qattiq cho‘chisa ko‘zining paxtasi chiqib ketadi-ya!..” Bek shuni o‘ylab xotinini tinchlantirdi:

– Unchalik qo‘rqinchli emas. Yukxonasining qopqog‘ini almashtirish kerak, xolos.

– Yukxonasining qopqog‘i **qurib ketsin**, o‘zingizga ziyon etmadimi? Boshqalarga-chi?

– Hech kimning og‘iz-burni qonamadi. Faqat, bir-ikki kun tramvay haydamayman, **shu...**⁷¹

Ushbu matnda biz tomonimizdan qora rangda ta’qidlab ko‘rsatilgan “**qurib ketsin**” jumlasini faqat o‘zbek ayollari nutqigagina xosligidan tashqari, nutq sohibasining o‘sha paytdagi holatini tasvirlashga ham xizmat qilmoqda. Bek nutqida qo‘llanilgan “**shu**” olmoshi ham ruhiy zarbaga uchragan kishining o‘zini xotirjam tutishga, tinchlantirishga urinayotganidan dalolat beradi.

“Badiiy adabiyotda foydalaniladigan til vositalari orasida sheva so‘zlari, kasbiy so‘zlar, jargonizmlar ham etiborga loyiqdir. Ushbu so‘zlar asosan personajlar tilida qo‘llanilib, ularning nutqiy individualligini ko‘rsatishda qo‘l keladi”⁷².

Qissa personajlari nutqidan ularning qaysi sheva vakili ekanliklari va shu orqali voqea sodir bo‘layotgan makon ham yaqqol anglashilib turadi:

“–O‘, **ada**, men kecha tush ko‘ruvdim, aytaman, desam, **opam** eshitmadilar...”⁷³

⁷¹ Дўстмухаммад Х. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2011, 7-8- б.

⁷² Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016, 211- bet.

⁷³ Дўстмухаммад Х. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2011, 9- б.

Ma'lumki, Toshkent shevasida adabiy tildagi **“dada” “ada”, “ona” “opa”** tarzida aytiladi. Demak, keltirilgan nutq adresanti toshkentlik, voqea Toshkent shahrida ro'y bermoqda.

Xurshid Do'stmuhammad asarlari tilining o'ziga xoslik tomonlaridan biri shundaki, muallif personajlari nutqini kitobxonga yaqqolroq tasavvur qildirish uchun ularga turli izohlar ham beradi. Jumladan, yuqoridagi matn parchasida *“dedi Bek o'ziga daxlsiz hodisani hikoya qilayotganday xotirjamlik bilan...”* degan muallif nutqi orqali personaj nutqini kitobxon tomonidan bor holicha – yaqqolroq anglashilishiga yordam beradi. Qissada muallif nutqida qo'llanilgan: *“dedi u shang'illab”*, *“dispetcher ayl endi yumshoqroq-muloyim ovozda gapirdi”*, *“dedi o'smoqchilab”*, *“ovozidan u erining qo'ng'iroq qilishini kutganga o'xshadi”*, *“dedi sovuqqina qilib”*, *“dedi yasama iltifot bilan...”* kabi izohlovchi jummalarni ko'plab o'qiymiz.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'lmoqdaki, Xurshid Do'stmuhammad o'z asarlarida avvalo personajlar nutqi, qolaversa, ularni kitobxonlarga to'laqonliroq tasvirlash maqsadida muallif nutqi orqali beriladigan izohlarga ham alohida e'tibor qaratadi.

Xurshid Do'stmuhammadning 2011 yil nashrdan chiqqan *“Qissalar”* to'plamidan yillar ketma ketligidagi quyidagi nomlardagi sakkizta qissa o'rin olgan:

1. *“Nigoh”* (1982-1985 yillar).
2. *“Panoh”* (1987-1988 yillar).
3. *“Oromkursi”* (1990 yil).
4. *“Chayongul”* yoxud quyiqishloqcha qotillik (1991 yil).
5. *“So'roq”* (1991 yil).
6. *“Hijronim mingdir mening”* (1996 yil).
7. *“Men – sensiz, sen – mensiz”* (1996-2010 yillar).

8. “Kuza” (2008-2010 yillar).

Milliylikni belgilovchi omillarning zohiriy va botiniy ko‘rinishlari haqida to‘xtalib o‘tdik. “Ma’lumki, zohiriylik bu shakldir. Shakl esa hech qachon masala mohiyatini belgilamaydi. U belgilashga xizmat qiladigan vositadir. Milliylik, birinchi navbatda, ruhiyatda o‘z mujassamini topadi. Milliylikni belgilaydigan boshqa xususiyatlarning barchasi unga bog‘liq, undan kelib chiqadi. Ruhiyat esa insonning tabiatini va o‘zligini belgilaydigan ilohiy kuch, ma’naviy oziqdir. Ruhiyati kuchli odam o‘z qiyofasidan, o‘z yo‘lidan, ya’ni to‘g‘ri yo‘ldan toymaydi, e’tiqodidan voz kechmaydi”⁷⁴.

Ko‘p manbalarda qayd qilingan, ta’kidlangan millatga xos bo‘lgan xususiyatlar, ya’ni jamoa bo‘lib yashash ruhining ustunligi; oila, mahalla-ko‘y; umuman, jamoatga yuksak hurmat-e’tiborning kuchliligi, ona tiliga muhabbat; kattaga hurmat va kichikka izzat; ayol zotiga ehtirom; sabr-bardosh va mehnatsevarlik; halollik, mehr-oqibat (Qarang: Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, O‘zbekiston, 2000-yil, 49-bet). Bu xususiyatlarning barchasi milliy ruhiyatning mahsulidir. Chunki mazkur insoniy fazilatlar inson jismidan emas, tuyg‘usidan kelib chiqadi. Istiqlol davri adabiyotining qahramoni mana shu xususiyatga egadir. To‘g‘rirog‘i, millatning shu xususiyatlarini inkishof qilish bilan jahonga tanityapti.

Shunday asarlardan biri Xurshid Do‘stmuhammad “Qissalar” to‘plamining eng so‘nggida o‘rin olgan “Kuza” qissasi bo‘lib, biz bu qissani qahramon nutqida ham milliylik jihatdan ham ichki kechinma tasviri bo‘yicha tahlil qilib ko‘ramiz.

Bugungi kunda xorijda ishlovchi yurtdoshlarimiz soni anchagina. Qissada begona yurtlarda yurib o‘zbek millatimizga xos bo‘lgan milliy an’analar, milliy qadriyatlar, milliy xarakterni inson taraqqiyoti yo‘lida keraksiz, ortiqcha deb hisoblovchi yurtdoshlarimiz ham uchrab turgani ammo asar oxirida ularning o‘zi ham shu kabi odatlarsiz yashayolmasligi badiiy aks yettiriladi.

⁷⁴ Hakimjon Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. – Toshkent: Yangi nashr, 2010, 153- b.

“– ertaga biznikda mehmon bo‘lasan, – dedi Farhod Azizni quchoqlaganicha bag‘ridan qo‘yib yubormay. – Sen, Umid – uchchovimiz bo‘lamiz xolos.

– Hay-hay, hovliqma, - dedi Umid Farhodni shashtidan qaytarmoqchi bo‘lib. – Namuncha joniqmasang? Axir hali osmondan tushib oyog‘i yerga tegib ulgurmadi-ku! Uyiga borsin, ota-onasi, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni deganday, keldi-ketdi sal pasaysin, borarmiz.

– To‘g‘ri ertadan keyinroq...

– Yo‘q, - dedi Azizning gapini cho‘rt kesib Farhod, – keyinroq vaqt yo‘q, chorshanba kuni delovoy ishlarim bor. Gap bitta – ertaga issig‘ida biznikiga!..

– Payshanba-chi? – so‘radi Umid.

– Mehmondorchilik bor.

– Juma, shanba?..

– Juma, shanba, yakshanba – qatorasiga ulfatchilik! – tantanavor ohangda e‘lon qildi Farhod.

– Yashash qiyinlashib ketdi deganlarning qattayu, kuniga ziyofatxo‘rlik qatta?! Tushunolmay qoldim!.. – elka qisdi Aziz kulimsirab”⁷⁵.

T. Boboev milliylik masalasiga to‘htalib, badiiy adabiyotdagi milliylik, faqat shakl hodisasigina emasligini, ayni choqda, u mazmun masalasi ekanligini quyidagicha izohlaydi: “Chunki badiiy asarda millatning iqtisodiy-siyosiy turmushi, xalq dunyoqarashining ichki murakkab mazmuni ham aks etadi”⁷⁶. SHu kabi mulohazalarni quyidagi polilogda ko‘rishingiz mumkin:

“– Masalan, men savdogarman...

– Sen tadbirkorsan, Umid – olim, to‘grimi? –Aziz shunday deb Farhodni gap boshlashiga qo‘ymadi va byergan savolini do‘stlari tomonidan

⁷⁵ Дўстмухаммад Х. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2011, 448- б.

⁷⁶ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, 2002, 85- bet.

tasdiqlanishini kutmay so'zida davom etdi: SHunday ekan, boshqa har qanday bordi-keldi, mayda-chuyda yumush senlar uchun begona, bekor!

Umid aytdi:

– Oila, qarindosh-urug', yaqin-yiroq... umuman odamgarchilik degan gaplar, tushunchalar nima bo'ladi?

Farhod savolni ma'qullagan ma'noda bosh iring'ab, Azizga do'layib qaradi.

Azizning esa pinagini buzish uyoqda tursin, ko'zi chaqna ketdi.

– Men topolmayotgan gapni, ya'ni indallosini sen aytding! – dedi u Umidga boshini ustma-ust silkitib. – Sen... Senlar aytayotgan, nazarda tutayotgan hamma odamgarchiliklar ahamiyatini yo'qotadi!

Farhod joni halqumiga etgan odamdek sapchib o'rnidan turib ketdi. Qo'lini paxsa qilib Azizning tepasiga bostirib bordi.

– O'sha erda uch yil sang'ib, orttirgan aqling shumi? – ensasi qotib va dag'dag'a aralash so'radi u.

Aziz shashtidan tushmad, qizishmadi ham.

– Shuni bilib qo'y, Farhod, o'sha yoqmi-bu yoqmi – hozirgi zamonda buning ahamiyati qolmadi, og'ayni. Tushunyapsanmi, ahamiyati qolmadi. Ikkinchidan, yanayam indallosini aytaymi?

– Ayt, – dedi Farhod Azizning ko'ziga tik qadalib. – Qo'rqma, aytaver! ”⁷⁷.

“– Yashashdan maqsad odamgarchilikmi, ayt –Farhod, ayt – Umid! –Aziz shunday deb ikki yonidan o'ziga tikilib o'tirgan ikkala do'stiga bir-bir razm solib oldi-da davom etdi: - Shunday ekan, marhamat, qandingni ur! Faqat odamgarchilik bilan shug'ullan. Odamgarchilikni osmonga ko'tar, sen bozorni yig'ishtir, sen esa olimlikni unut. Unut-da, o'zlaring tish-tirnog'ing bilan qapishib olgan odamgarchilik orqasidan dunyoga tanil!. Marhamat!

Oraga tushgan jindek jimlikni Farhodning tagdor piching aralash kulgisi buzdi.

⁷⁷ Дўстмуҳаммад Х. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2011, 459- б.

– *Quruq odamgarchilik bilan qozon qaynamaydi-da, uka, – dedi u yasama salmoqlanib.*

– *Aytmoqchimanki, bir ishga bosh suqdingmi, ko‘zingga boshqa narsa ko‘rinmasin, seni tilka-pora qilib, maydalab-burdalab tashlaydigan narsalardan qoch! Andisha, istihola, kamtarlik, kamsuqumlik, oriyat-moriyat... xullas, bizlarning ... odamlarimizning nazaridagi odamgarchilik bor-ku, shularning bari har bir odamni o‘zi tanlagan maqsaddan chalg‘itadi, boshini qotiradi, butun bo‘lishiga yo‘l qo‘ymay parchalab tashlaydi!*”⁷⁸.

Orada do‘stlar o‘rtasiga sovuqchilik tushdi. Farhod Azizni yetti yot begonadek his qilar, Umid esa, uning gaplarini tushunishga urinardi.

“ – *Gapir, uka, – dedi Farhod Umidni Azizga gijgijlab. – Man bir bozorchi savdogar bo‘lsam, san olim odamsan-ku, istihola, oriyat-poriyatni yig‘ishtirib qo‘yib javobini ber.*

– *Piching qilmay gapiraver, – dedi Aziz zo‘raki jilmayib.*

Farhod o‘zini bazo‘r bosdi.

– *Uyimda mehmonimsan, og‘irroq gapirib yubormaslik uchun ham piching qilyapman*”⁷⁹.

Mana shu o‘rinda Farhod o‘z nutqi orqali mehmondo‘stlik o‘zbeklarda qanchalar ulug‘lanishini namoyish qilgan.

Aziz bo‘lib qaytgan tomonlarda odamlar o‘z maqsadlari yo‘lida hamma narsadan hatto ota-onasi-yu farzandidan voz kechishga tayyor. Eng qizig‘i, buni hech kim ayb sanamaydi. Ota-ona roziligi, farzandlarimiz taqdiridan qayg‘urish, qarindosh-urug‘, el-yurt tashvishi bilan yashashni o‘zi uchun or-nomus masalasi deb bilgan, o‘zini o‘zbek sanagan har qaysi millat vakillariga bunday tuyg‘ular begonadir.

“Abdulla Qahhor hajviya tilida kinoya, masxara qilish, bo‘rttirish muhim vositaga aylanadi, deb tushunadi. U bunday deydi: “Jek London ikki

⁷⁸ Дўстмуҳаммад Х. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2011, 469-70- б.

⁷⁹ Дўстмуҳаммад Х. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2011, 470-71- б.

kishini sizga mislsiz jallod deb taqdim qiladi-yu, uning jallodligi to‘g‘risida biron og‘iz so‘z aytmaydi. Gogol ham shunday qiladi. Uning sizga Ivan Ivanovichning “yaxshi” tomonlari, deb taqdim qilganlari Ivan Ivanovichning naqadar ahmoq, yaramas kishi ekanini anglatadi”⁸⁰. SHuning singari Xurshid Do‘stmuhammad ham Azizning ishi to‘g‘ri, noto‘g‘ri deb o‘tirmaydi. Farhod obrazi yordamida inson inson uchun keragligini, do‘sti ortiqcha, kishi taraqqiyoti uchun zarar hisoblagan odamgarchiliklar ahamiyatli ekanligini isbotlab, ko‘rsatib beradi. Do‘sti Aziz aytmasa ham , uning xorijga qaytishi uchun juda zarur bo‘lgan, ammo hal qila olmayotgan hujjatining bitishiga yordam beradi. Buning uchun Farhod ham boshqa og‘aynilaridan yordam oladi.

Aytish mumkinki, “Kuza” qissasi Xurshid Do‘stmuhammad qalamiga mansub bo‘lgan “Mahzuna” hikoyasi hamda “Bozor” romanlari singari istiqloq davri muammolarining inson tabiati, ma’naviyati, ruhiyatining milliylikka dahldorlik darajasida badiiy ifodalangan.

“Hijronim mingdir mening” nomli qissada yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad ta’riflaganidek, inson qalbining eng nozik, eng daxlsiz, eng erka tuyg‘usi – muhabbatni yozma ijodning eng samimiy, eng sirli va eng jozibali shakli – maktub yordamida tasvirlaydi. Asar qahramonlarining ismlari keltirilmaydi, muallif aytganidek maktub egalari oshiq yigit va qiz kitobxonning o‘zi, muhabbatga yo‘liqqan barcha toza ko‘ngilli insonlardir.

Aslida tanimagan-netmagan qizga ko‘ngil qo‘yishni tasavvur qilolmagan oshiq sevgilisini “sizning yuz-ko‘zingizdan, bosiq va doimo yerga tikilgan nigohlaringizdan taralayotgan oqlikka nisbatan juda-juda ojiz, notavon his qilgandim o‘zimni ”⁸¹ deya ta’riflaydi. Bosiq va doimo nigohlari yerga tikilgan qizning tilidan aytilgan quyidagi fikrlarda milliylik ruhi seziladi:

⁸⁰ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент, 2008, 118- б.

⁸¹ Дўстмуҳаммад Х. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2011, 331- б.

“...xatingizni o‘qib, o‘zimni qo‘yarga joy topa olmadim. Axir men qiz bolaman”, “Eslasangiz kerak, gapira turib to‘satdan, “Meni to‘g‘ri tushunyapsizlarmi?” deb so‘rar edingiz. Men Sizga tik qaray olmaganim bois dabdurustdan ismimni aytib murojaat qilar edingiz. Men “Ha tushunyapman” degan ma‘noda bosh irg‘ab qo‘yar edim”, “Xat yozyapmanu, Siz bilan tuzukroq, ochilibroq suhbatlashishdan xijolat bo‘lganlarimni eslayman. Hanuz o‘sha fikrdaman”, “Men sizni yaxshi bilaman, taniyman, lekin qiz bola tomonidan, “Sizni qadrlayman” yo shu qabilida dil izxori qilish, bilmadim...”, “Xatni tugatdimu, ikki kungacha uni yonimda asrab yurdim”.

Muhabbat – qadriga etish-qadr topishdan-da yuksakroq tuyg‘u deb hisoblovchi qissa qahramonlari “Inson uchun oilaviy baxtdan ko‘ra ulug‘roq saodat yo‘q”, “Odamning qadriga eta bilishdan ko‘ra ulug‘roq saodat bo‘lmasa kerak dunyoda! Har qanday oilaning baxti, mustahkamligi er-xotin bir-birini qadrlay olishi bilan o‘lchanadi” deb hisoblaydilar.

Yuqoridagi misollarda sharqona o‘zbek qizlariga xos uyatchanlik, odob-axloq, oilaning muqaddas qo‘rg‘on sanalishi kabi fazilatlar o‘zining yaqqol badiiy aksini topgan.

Asarlarda badiiy tasvir vositasi sifatida adabiy tilda qo‘llanilmaydigan, faqat muayyan viloyat, tuman aholisi jonli tili uchun xos bo‘lgan so‘z va iboralar, ya‘ni dialektizmlar ham qatnashadi. SHEvaga oid so‘zlar odatda, adabiy qahramonlar nutqida uchrab, muallif nutqida qo‘llanilmaydi. T.Boboev darsligida ba‘zi hollarda dialektizmlar muallif nutqida uchrab turadi deyiladi. Bizningcha muallif nutqida shevaga oid so‘zlarning uchrashi kitobxonga tushunmovchiliklar tug‘dirib, badiiy asarning qimmatini bir daraja pasaytiradi. SHu sabab muallif nutqi adabiy tilda bo‘lishi zarur.

Binobarin, personajlar tilida dialektizmlardan foydalanishda ham me‘yorni bilish zarur. Xurshid Do‘stmuhammad qalamiga mansub qissalarning barchasida shevaga oid so‘zlar qo‘llanilgan bo‘lib, yozuvchi uning me‘yorini bilgan.

Jumladan, “So‘roq” qissasida “Paxtaqaynar” qishlog‘liklariga xos so‘zlar quyidagicha ifodalangan:

“Bu, Narziqul amak o‘lguday go‘l ekan-da....nuqul, “to‘y qillim”, “moshin ollim”, “o‘n ikki bolam bor, sarmoyani bilmayman” deb yotibdi-ey!....”, “Men bo‘lar-bo‘lmasga aljiydigan ahmoq emasman, lekin og‘zingiz o‘zidan-o‘zi ochilib ketavuradi....So‘ra-so‘ramasa aytavurasiz...”, “–Xe-e, tunda tashqarilagandim, qarasam, manov Chuchuk Momoning uyi teppasi kundek yarug‘! Oy qulag‘anmi dedim!..”, “ –Ko‘zim minnan ko‘rdim-a!. So‘ng, o‘sha chirog‘ osmonga uchdi-ke- etdi...O‘lay, agar...”, “–Ana! Ana, aylanaylar, manov kelinning eri bor-ku, Bozorqul – o‘sha so‘ylashdi! Ko‘zim minan ko‘rdim-a! Ana, kelin aytsin kelin!.”.

Shevaga oid so‘zlar personajlar nutqida qo‘llanilib, har bir personajni individual xususiyatlarini ifodalaydi. Yuqoridagi misollarda “Paxtaqaynar”liklarga xos qishloq aholisining sodda, samimiyligi badiiy aks etgan.

Bob bo'yicha qisqa xulosa:

1. Quyidagi xususiyatlar badiiy adabiyotning milliyligini ta'minlovchi omillar sifatida beriladi: milliy til; milliy xarakter; milliy psixologiya; milliy-axloqiy qoidalar; urf-odat va kiyim-kechaklar; etnografik o'ziga xoslik; milliy peyzaj.

2. Xurshid Do'stmuhammad milliy adabiy an'analarni ham, dunyo adabiyoti tajribalarini ham puxta o'zlashtirgan, doimiy izlanish, so'z va fikr qolipini yangilashga intilgan ijodkordir. Yozuvchi o'z asarlarida avvalo personajlar nutqi, qolaversa, ularni kitobxonlarga to'laqonliroq tasvirlash maqsadida muallif nutqi orqali beriladigan izohlarga ham alohida e'tibor qaratadi.

3. Milliylikni ta'minlovchi omillarning eng birinchi ko'rinishi ham – bu, milliy til sanaladi. Umuman olganda til va uning mohiyati, milliylik jihatdan tutgan o'rni badiiy asarning chin manoda haqiqiy asar deb baholanishida asosiy vazifani bajaradi.

4. Mahoratli adiblarning hayotning tom ma'nodagi in'ikosi sifatida yaratadigan badiiy asarlari personajlari nutqida ham ularning ijtimoiy belgilari yaqqol aks etib turadi. Yozuvchilar qahramonning so'zlash tarzini, o'ziga xos ohangini qisqa va lo'nda jumladan tashkil topgan suhbatlar, dialoglar, monologlar orqali tasvirlashga, qahramon xarakteridagi belgilarning shakllanishini uning orqali aks yettirishga alohida e'tibor beradilar.

U CH I N CH I B O B

RUHIY KECHINMA VA NUTQ

3.1. “Nigoh” qissasida qahramon nutqi va ichki kechinma tasviri

Badiiy adabiyotning qaysi janrida bo‘lmasin, qahramonning ichki olamiga alohida e‘tibor beriladi. Ruhiyat olamiga e‘tiborning kundan-kun ortib borishi bugungi milliy istiqlol davrimizdagi badiiy tafakkurning oldiga qo‘ygan vazifalaridan kelib chiqmoqda. O‘zbek nasrida mazkur badiiy psixologik tasvir usullari XX asrning 20- yillari A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” kabi romanlarida, keyinchalik A.Qahhorning “Sarob”, Oybekning “Navoiy”, O.YOqubovning “Diyonat”, “Ulug‘bek xazinasi”, S.Ahmadning “Ufq”, O‘.Usmonovning “Girdob”, O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa”, “Tepalikdagi xaroba”, “Ko‘zgu oldidagi odam”, Tog‘ay murodning “Otamdan qolgan dalalar”, X.Do‘stmuhammadning “Bozor”, SHukur Xolmirzaevning “Dinozavr”, “Olabo‘ji” kabi romanlarida qahramonning psixologiyasi, ichki botiniy olami sirlari yorqin tasvirlana boshladi.

Psixologizm “psixologik tahlil” tushunchasiga nisbatan keng bo‘lib u o‘zida bevosita muallifning psixologiyasini ham qamrab oladi. Demak, psixologizm adabiyotning o‘ziga xos qonuniy hodisasi bo‘lib, yozuvchining xohishiga bog‘liq bo‘lmagan holda namoyon bo‘ladi. “Psixologik tahlil” esa inson psixikasi jarayonlarini, uning fikr va hissiyotidagi turli-tuman “ohang” rivojini aks ettiruvchi, qahramon ruhiy dunyosini analitik tamoyilda ochuvchi estetik kategoriyadir”⁸². Demak, psixologik tahlil-badiiy shaklning bir vositasi bo‘lib,

⁸² Rajabova O. Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida ijodiy individuallik. – Nukus, 2015.

uning badiiy asarda bo‘lish-bo‘lmasligi o‘sha asarning g‘oyasiga va mahoratning darajasiga bog‘liq.

“Psixologizmga nisbatan psixologik tahlil o‘zining ichki monolog, o‘ziniki bo‘lmagan nutq, psixologik portret, “ikki syujetli” dialog (“Birinchi syujet”da qahramon hissiyoti va kechinmalari rivoji, ularning nutqlari, mimikasi, imo-ishorasi orqali aks etadi. “Ikkinchi syujet”da qahramon kechinmalari rivoji muallif tomonidan tushuntiriladi, ularga muallif baho beradi) kabi aniq unsurlariga ham ega”⁸³.

Istiqlol yillarida Sh.Xolmirzaev, O.Muxtor, X.Do‘stmuhammad, T.Murod kabi yozuvchilarning asarlari kitobxonni yangicha fikrlashga chorlaydigan, shakliy izlanishlarga boy, qahramonning tashqi faoliyatidan ko‘ra ruhiy va insoniy qiyofasi ochib berilgan. Aytish joizki, milliy istiqlol davri asarlari xalqimizning kelajak yo‘lini yoritadigan ijtimoiy saboqlar majmuasiga aylandi.

Ma’lumki, adabiyot va san’at hamisha inson bilan tirik. Insonning jamiyat, tabiat, olam sir-sinoatlari bilan aloqalari san’atning boqiy mavzui. SHu jumladan, adabiyotshunoslikning ham eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Har bir davr adabiyoti qahramonlarining falsafiy-estetik, psixologik dunyosi bilan bir biridan farq qiladi. Shu ma’noda mustaqillik davri asarlari qahramonlarining badiiy-estetik dunyosi, ma’naviy axloqiy izlanishlari, intellektual dunyosi o‘rganilishi ilmiy-nazariy umumlashmasini kutayotgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Istiqlol mafkurasining o‘zak mohiyatini komil shaxsni kamol toptirishdek g‘oyat mas’uliyatli vazifalar tashkil etadi. Bu narsa insonni, voqelikni estetik idrok etish va tasvirlashdagi yangi-yangi badiiy umumlashmalar kashf qilish bilan belgilanadi. Mazmunan yangi yo‘nalish kasb etgan mustaqillik davri o‘zbek qissachiligida jahonssivilizasiyasi tarixida yangi sahifa ochgan, yangi ozod hayotni

⁸³ Rajabova O. Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida ijodiy individuallik. – Nukus, 2015.

yuzaga keltirgan o'zbek fenomenini olib kirgan erkin shaxsning ob'ektiv voqelik bilan uzviy bog'liqligini, qalb hayoti manzaralarini aks yettirish bosh muddao bo'ldi. Ana shu jarayonda qissachiligimiz shaxsning jamiyat, tabiat bilan uzviy bog'liqligini yoritishda falsafiy-psixologik tahlil madaniyatini chuqurlashtirish yo'lidan bormoqda.

Ma'lumki, har bir tarixiy ijtimoiy davrda dunyoqarashlar, mafkuralar o'zgargani singari insonga bo'lgan qarashlarning, inson fenomenining talqin xususiyatlari ham o'z tarixiga ega. Insonning vazifasi mas'uliyati, bir so'z bilan aytganda, tabiat jamiyat hodisalariga ijtimoiy voqelikka munosabati zamonlar o'tishi bilan o'zgarib kelgan. Shu ma'noda mustaqillik davri o'zbek qissachiligida yangi qahramonlarning ma'naviy-intellektual, falsafiy-psixologik dunyosini davr, jamiyat va ijtimoiy voqelik bilan uyg'unlikda o'rganishni hayotning o'zi taqozo etayotir. Chunki inson jamiyatning ongli, jonli a'zosi. U tarixni yaratuvchi dunyoviy umumbashariy qadriyatlar asosida davr qiyofasini o'zgartiruvchi buyuk kuch.

Mustaqillik, milliy mafkuraning ma'naviy asoslarini mustahkamlash sari safarbarlik adib ijodiga ham sifat o'zgarishlar olib kirdi. Inson va jamiyatga bashariy miqyoslardan nigoh tashlash o'rganish va baholash madaniyati ustivor tamoyilga aylandi. Xususan, shaxsning ruhiy va fikriy erkinligi hamda inson bebaho intellektual qadriyatdir degan falsafiy konsepsiya adibning istiqlol davri ijodining mazmun-mundarijasini belgilab bermoqda. Milliy istiqlol davridagi adabiy-tanqidiy tadqiqotlarda psixologizm muammosi etarlicha o'rganilmayotir.

Shu nuqtai nazardan yondashsak, Xurshid Do'stmuhammadning roman, qissa va hikoyalarda xarakter qirralarini tahlil etish etakchi psixologik shakl hisoblanadi.

Psixologiyada xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan faoliyat usullarida namoyon bo'ladigan tipik sharoitlarda ko'rinadigan va bu sharoitlarga shaxsning munosabati bilan belgilanadigan individual psixik

xususiyatlar yig'indisi tushuniladi va shaxsning yo'nalishi-ehtiyojlari, motivlari, qiziqishlari, ishtiyoqi xarakterning mazmunini tashkil etadi.

Adabiyotda esa “badiiy xarakter – bu, individual belgilarni ham o‘z ichiga olgan holda ma’lum bir ijtimoiy sharoitda paydo bo‘lgan, ijtimoiy ma’no kasb qilgan iroda yo‘nalishining asardagi badiiy irodasidan iboratdir. Faqat ijtimoiy sharoit asosida yuzaga chiqqan shaxs irodasi xarakterning asarda badiiy va g‘oyaviy negizini ta’min etadi”.

Shu nuqtaiy nazardan yondashsak, bu ishimiz bevosita xarakterlar ruhiy dunyosini ochish mahorati muammosiga bag‘ishlangan tadqiqot bo‘lib, X.Do‘stmuhammad asarlaridagi psixologik tahlil vositalarining dialog, monolog, xat kabi turlariga to‘xtalamiz.

Badiiy asarda qahramon xarakterining qirralari xilma-xil bo‘lganidek, uning ruhiy olamini ochuvchi «portret, monolog, dialog, tush, psixologik timsollar, peyzaj, galyusinasiya kabi poetik vositalari ham rang-barangdir». Mazkur vositalar tahlili orqali adibning psixologik tahlil mahorati sirlari ochiladi.

Olimlar tomonidan o‘zbek nasri 80-90- yillarda turli o‘zgarishlarga uchrangani ta’kidlab o‘tiladi. Jumladan, Tilavoldi Jo‘raev “Ong oqimi va tasviriylik” risolasida 80-90-yillarga kelib, o‘zbek nasri qamrovi kengayganligi, tahlil maydoni, shakli, mazmuni, qolaversa, maqsadlarining yangi jihatlari yuzaga kelganligini ta’kidlab, “ruhiyat tahlili badiiy nasrning asosiy sifat belgisi, badiiylik mezoniga aylandi”⁸⁴ deb yozadi. Shu bilan birga, tasvir obekti to‘g‘ridan-to‘g‘ri badiiy to‘qimaga aylantirilmaydi, “badiiy qahramon muallif yaratgan xarakter emas, balki o‘zini o‘zi ixtiro qilgan (shartli asosda, albatta) o‘z tasvvurlari, ong oqimi asosida vujud topgan personajlarga aylandi”⁸⁵. Bu esa, an’anaviy tasviriylikdan ko‘ra biroz o‘zgacha, ya’ni “badiiy xarakter yaratishning g‘arbona ichki monolog turiga asoslanganligidir”⁸⁶. Natijada adabiy tasvir maydoni ham

⁸⁴ Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик – Тошкент: Фан, 1994, 3- б.

⁸⁵ Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик – Тошкент: Фан, 1994, 11- б.

⁸⁶ Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик – Тошкент: Фан, 1994, 8-бет.

kengayib boradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu yo'nalish o'zbek adabiyotida 80-yillarga to'g'ri kelsa, jahon adabiyotida XX asrning dastlabki yillarida yuzaga kelgan.

Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida unda tasvirlanayotgan unsurlarning o'rni va ahamiyati katta. Qozoqboy Yo'ldosh va Muhayyo Yo'ldoshlarning "Badiiy tahlil asoslari" nomli kitobidan o'rin olgan "Tahlilda tasviriy unsurlar uyg'unligi" mavzusida quyidagi "badiiy bitik mazmunining asl mohiyati muayyan asarda tasvirlangan olam, badiiy nutq, kompozitsiya va syujet singari tarkibiy qismlardan iborat shakl unsurlari birligida namoyon bo'ladi"⁸⁷ degan fikrlari beriladi. SHubhasiz, ushbu birliklar asarning tom ma'nodagi mohiyatini ochib berishdagi asosiy unsurlardir. Dissertatsiya mavzuumizga bevosita aloqador bo'lgan ruhiy kechinma hamda uning tasviri badiiy asarda tasvirlangan olam sifatiga to'g'ri keladi. Tasvirlangan olam badiiy detallardan tashkil topadi. Badiiy detallar peyzaj, portret, harakat, biror-bir narsa, ruhiy holat manzaralari va boshqa ko'plab vositalardan iboratdir. Badiiy detallar tabiati va vazifasiga ko'ra tashqi va ichki kabi guruhlariga ajratib olinadi. Tashqi guruh nomidan ayon bo'lganidek, unda portret, peyzaj, narsa tasvirlansa, ichki guruhda esa, ya'ni ruhiy tafsillar (Qozoqboy Yo'ldosh) obrazning o'y-fikr, his-tuyg'u, istak-armon, quvonch, qayg'u singari ko'ngil holatlarini tasvirlashga xizmat qiladi.

Ruhiy detallashtirishda doimo amal qilinishi shart bo'lgan yagona qonunning yo'qligi qonun hisoblanishi aytib o'tiladi. Buning sababi ruhiy detallarning bir asar yoki bir necha asarlarda, turli o'rinlarda, turli vazifalarda kelishi bilan izohlanadi. Qahramonning o'y, kechinma, orzu-istak, hissiy-holat va kayfiyatdan iborat ichki olamini badiiy tasvirlar vositasida ochib beruvchi alohida psixologizm deb atlavchi yo'nalishni yuzaga keltiradi. Badiiy detal guruhlaridek psixologik tasvirlar ham ichki (bilvosita) va tashqi (bevosita) kabi tasvir turlariga bo'linadi.

⁸⁷ Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016, 194- bet.

Bevosita turida “obrazlar ruhiyatining nutq, xatti-harakat, imo-ishora singari tashqi ifodaviy o‘ziga xosliklar”⁸⁸ tasvirlanadi. Ikkinchi xil turi bilvosita yo‘nalishida “timsollarning ichki nutqi, xotirasi, tasavvuri va kayfiyatlarini aks yettirish”⁸⁹ vazifasini bajaradi.

Biz tahlil etayotgan qissa qahramoni Bek duch kelgan “dam kasalxonadagi ayol, dam kotiba qiz, dam opasi, dispetcher ayol – hammasining ko‘z ifodasi bir xil ta‘nali, sinchkov”⁹⁰ ta‘qiblari uning o‘y-xayollariga o‘z ta‘sir kuchini o‘tkazadi. Ushbu nigohlar ham tashqi ham ichki psixologik tasvir detallari bo‘la oladi. Bunga o‘xshash vaziyatlar Bekning tuni bilan yomg‘ri yog‘ib chiqqan kecha, o‘rik, shaftoli kabi meva daraxtining gullari (otasi ilk bahor kinlari uy derazalarini ochib qo‘yib tomosha qilishni yoqtirardi), arvoq kapalak, hovli etagidagi uy, tramvaylar parkidagi amaki yashaydigan yolg‘iz uy, uy bog‘idagi nok daraxti bularning barchasi badiiy detal vazifasini bajarib, asarning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Personaj ichki dunyosi birinchi va uchinchi shaxs tilidan amalga oshiriladi. Birinchi shaxs tilidan bayon qilish uchinchi shaxs tilida bayon qilishdan ko‘ra avvalroq foydalanilgan, qolaversa, samaraliroq hisoblangan. Uchinchi shaxs tilidan bayon qilishning ham o‘ziga xos tomonlari bo‘lib, unda “olib borilgan bayon asarga ruhiy tasvirning ichki monolog, ochiq iqror, kundaliklardan parchalar, xatlar, tush ko‘rishlar, xayolot singari son-sanoqsiz usullarni kiritish imkonini beradiki, bu hol tasvir jozibasini va ta‘sirchanligini oshiradi”⁹¹.

“Psixologik tahlil va obrazning o‘z-o‘zini taftish qilishi singari usullar ham ruhiy tasvir puxtaligiga xizmat qiladi”. O‘z-o‘zini taftish qilish holatlari Bek personaji orqali o‘z aksini topgan desak yanglishmaymiz. Buni quyidagi misol, ya‘ni, shaharga muhim ish bilan kelgan Bekning do‘sti O‘ktamga aytgan so‘zlari va undan keying pushaymonlari ifodalangan o‘rinlar orqali ko‘rishimiz mumkin:

⁸⁸ Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016, 201- bet.

⁸⁹ O‘sha manba.

⁹⁰ O‘sha manba.

⁹¹ Do‘stmuhammad X. Qissalar. – Toshkent, 2011, 65- bet.

“Ketgin, bor, do‘stim, hozir ko‘zimga ko‘rinma, kallangda ivirsigan almoi-aljoi tashvihlaringga keyin, biron bo‘sh vaqtimda, asablarim dosh byergan paytda quloq solaman, do‘stginam, ana o‘shanda bugungi qo‘polligim uchun uzr so‘rayman! Ha, do‘stim, hozir mashinangga o‘tirda, faqat meni o‘z holimga qoldir, boraqol, yumushlaringni bitir....”⁹².

Ushbu holat tasviridan so‘ng muallif nutqi orqali Bek O‘ktamga shunday qo‘pollik qilgan bo‘lsa ham, u o‘zining qo‘polligini tan olishi, shuning uchun ham u “ko‘nglining tub-tubidan” (X.D) uzr so‘ragani, qisman bo‘lsa ham aybdorligini sezganligining tasviri ifodalanadi. SHunga o‘xshash yana bir vaziyat tush ko‘rgan kuni bilan bog‘liq. Ko‘rgan tushi sabab hovli etagidagi uy (ota-onasi yashagan uy)da opasining iltimosi bilan turgan ijarachi Dalavoyni ranjitagnini, “Volga”ni ko‘rishi bilan tormoz tutqichini darhol tortmaganini tinmay o‘ylashi, ishsiz yurishidan siqilishi, o‘y-xayollari ichida biror-bir xulosga kela olmasligi kabi tasvirlar Bekning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini ochib bera olgan. Qissaning boshidan oxiriga qadar shu vaziyat, ya’ni Bekning o‘z-o‘zini taftish qilish holati davom etib, uning voqeaga, umuman olganda butun bir hayotga nisbatan munosabati, o‘zidagi ichki kechinmalari izchil suratda mahorat bilan aks yettiriladi.

Ruhiy tahlil jarayonida ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri ichki monolog usuli hisoblanib, unda personajning o‘ylari, ruhiy holatlari ifodalanadi. “O‘zining mantiqiy chegarasigacha olib borilgan va ruhiy holatining tabiiy harakatlanish jarayoni tarzida namoyon bo‘lgan ichki monolog ruhiyat va adabiyot ilmida “ong oqimi” deb nomlanayotgan o‘ziga xos hodisani yuzaga keltiradi. Bu usulda odamning xayolot dunyosi, ruhiyatida kechayotgan katta-kichik jarayonlar tabiiy betartibligida berilishi orqali badiiy tasvirning ta’sir darajasini oshirishga xizmat qiladi”⁹³.

⁹² O‘sha manba. 63- bet.

⁹³ Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016, 202- bet.

Biz tahlil qilayotgan Xurshid Do'stmuhammad qissalarining deyarli barchasida asar voqealari, undagi sodir bo'lgan va bo'layotgan hodisalar betartib tarzda beriladi. "Nigoh" qissasida ham Bek bilan birga goh "Volga" mashinasini urib yuborgan o'sha kundagi holatlari, goh ijarachilar bilan bo'lgan voqea, goh uyidagi vaziyat, goh ishxonasi bilan bog'liq yuz berayotgan vaziyatlarning voqealar ketma-ketligi tartibsiz tasvirlanadi.

Yuqorida keltirilgan iqtiboslar orqali "ong oqimi" tushunchasi haqida biroz to'xtalib o'tamiz. Mavzuimizga aloqadorlik tomoni shundaki, XIX asrda modernistik adabiyotda paydo bo'lgan ushbu tasvirlash usuli bevosita hayotni hamda inson ruhiyatida kechuvchi jarayonlarni qanday bo'lsa shundayligicha aks yettiradi. Biz tadqiq etayotgan ishning maqsadi ham shunday. Dissertatsiyaning uchinchi bobi orqali "Nigoh" va "Kuza" qissalarini qahramon nutqi, qolaversa, asarlarda ruhiy holat va ichki kechinmalar qanday tasvirlangani, uning o'ziga xos qonun-qoidalarini tushunish, anglab etish, tahlil qilishdan iboratdir. "Adabiyot hamisha inson ruhiyatida kechuvchi jarayonlarga qiziqqan, ularni turli yo'llar bilan ifodalashga intilgan"⁹⁴.

Asarda ro'y berayotgan voqealarning zamon va makoni real zamon va makonga nisbatan shartlilik asosida amalga oshiriladi. Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida zamon va makonning turini to'g'ri aniqlash asar tahlilining to'g'ri amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Zamon va makonning tasvirlashning ham o'ziga xos usul va yo'llari mavjud. "Nigoh" qissasida adabiy zamon va makonga xos bo'lgan xususiyatlar zamon tushunchasiga nisbatan alohida qismlar holida uzilgan tarzda tasvirlanadi. Zamonaviy butunlikni ta'minlash maqsadida "o'sha kun", "o'sha zahoti", "o'sha zahoti", "o'sha yili", "umr bo'yi" va shu kabi boshqa bir qator iboralar qo'llaniladi. "Nigoh" qissasini ham "Volga" mashinasi bilan to'qnashuv ro'y byergan "o'sha kun", "o'sha voqea"ning asar mazmuniga bo'lgan ta'sirini kuzatishingiz mumkin.

⁹⁴.Quronov D.,Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent:Akadem nashr, 2013, 209- bet.

Makon aniq va noaniq usullar yordamida tasvirlanadi. Badiiy asarni tahlil qilishda makon va zamonning oz yoki ko'p miqdorda to'ldirilgani muhim sanaladi deydi Qozoqboy Yo'ldosh. "Badiiy zamonning shiddati unda sodir bo'layotgan hodisalarning tig'izligida namoyon b'ladi. Bu o'rinda "hodisa" so'zi nafaqat tashqi obektiv, balki ichki ruhiy kechinmalarni ham anglatishi ko'zda tutilishi kerak"⁹⁵. Zamon tig'izligining to'ldirilganlik darajasiga ko'ra "o'rtacha", "ortiqcha", "siyrak" singari turlarga bo'linadi.

Agar "Nigoh" qissasidagi "hodisa" so'zini Bekning ichki ruhiy kechinmalariga nisbat qilib oladigan bo'lsak zamon tig'izligiga ko'ra o'rtacha tig'izlikka to'g'ri keladi. Asarda zamon va makon munosabatlari ham bir-biriga o'zaro turli darajalarda ta'sir qilib turadi. Ya'ni, aniq makon tasvirlanganda undagi zamon ham shuncha aniq va yoki aksincha bo'lishi ham mumkin.

Badiiy nutq jihatdan olib qaraganda, badiiy nutq personaj nutqi va muallif nutqi kabi ikki asosiy turlarga ajratiladi. Muallif nutqining mohiyatidan kelib chiqilsa, undagi xos xususiyatlar ko'proq muallifga emas bayonchiga to'g'ri keladi. Bayonchi keyingi yillarda ishlatilayotgan roviy atamasini ifodalaydi. Badiiy bayonning o'zlashtirma nutq deb ataladigan alohida shakli ham mavjud. O'zlashtirma nutq shakli Y.Solijonov tomonidan o'zganing nutqi deb beriladi. Bu shaklda nutq to'laligicha boshqa bir shaxsning nutq uslubiga asoslanib betaraf bayonchi hamda personajning ko'chirma nutqidan iborat bo'ladi. Quyidagi parchada shaxslashtirilgan ikkinchi darajali obraz sifatida amaki (tramvaychilar parkidagi yolg'iz uyning egasi) personajining betaraf bayonchi nutq shakli namoyon bo'lgan:

"Besh yil frontda yurdim. Yuz o'lib, yuz tirildim. Hushimni tanimayman de. Ko'z oldim jimir-jimir qiladi, tuman, sharpalar, o'ylay deyman, qayoqda! Miyam bo'm-bo'sh, o'lganga o'xshayman – odamlar tepamda girdikapalak. E, qo'yinglar, o'zlaringni qiynamanglar, foydasi yo'q demoqchi bo'laman – qani, til aylansa..."

⁹⁵ Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016, 217- bet.

Bir payt ko‘zimga daraxtning surati ko‘rindi, dam tiniqlashadi, dam xiralashadi, chiranib, bor madorimni ko‘zimga jamladim, shoxlari yayrab-yashnab o‘sgan, surat emas, xuddi o‘zi, daraxtning o‘zginasi!....”⁹⁶.

Anglashilganidek, badiiy bayon shaxslashtirilgan yoki shaxslashtirilmagan singari turlarga ega. Ular yana o‘z ichida asardagi ishtirok etish darajasiga qarab, bosh qahramon, ikkinchi darajali yoki asarda deyarli uchramaydigan obraz bo‘lishi ham mumkin. Shaxslashtirilgan bayonchi ism, yosh, ko‘rinish kabi belgilarga ega bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan misolda ham yoshini anglatuvchi “amaki” obrazi ikkinchi darajali shaxslashtirilgan obrazdir.

Epik asarlarga xos bo‘lgan usullardan biri singari “Nigoh” qissasining bosh qahramoni Bekning ichki kechinma, ruhiy holatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanmaydi. Uning tuyg‘ulariga ta’sir qilgan, to‘xtovsiz o‘y-xayollarga berilishiga “Volga” bilan to‘qnashuv hodisasi, “Volga”dagi ayolning nigohi va uchratgan boshqa nigohlar sabablar ta’sirida ifodalanadi.

3.2 “Kuza” qissasida qahramon ruhiyatini ochish usullari

Muallif qahramon ruhiyati bilan yashamay turib, uni kitobxonga etkazib bera olmaydi. Badiiy asar qahramoni talqinida psixologik tavsif muhim rol o‘ynaydi. Psixologik xarakteristikada muallifning ijtimoiy muhitga, qahramonlariga bo‘lgan munosabati ifodalanadi, kitobxonlarda ularga faol munosabat hislari uyg‘otiladi.

Asarda personajning kelib chiqishi, faoliyati, psixologik xarakteri, ichki kechinmalari, xulq-atvori, idroki, qobiliyati, tashqi qiyofasi va boshqalar haqidagi psixologik ma’lumot – muallifning psixologik tavsifidir. Personajlarning psixologik nutqiy xarakteristikasi qahramon obrazi ichki dunyosini ochishning

⁹⁶ Дўстмухаммад Х. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2011, 15-16- бетлар.

muhim vositasi. Nutqiy xarakteristikaning, odatda, quyidagi turlari keng qoʻllaniladi:

- a) personajlar oʻz-oʻzini xarakterlaydi;
- b) bir personaj ikkinchi bir personajni xarakterlaydi.

Badiiy asarda psixologik xarakteristikaning rang-barang shakllari, koʻrinishlari, usullari uchraydi. SHulardan baʼzi birlarini biz tadqiqot obʼektimiz boʻlmish X.Doʻstmuhammadning “Kuza” qissasi asosida koʻrib chiqamiz.

Zamonaviy oʻzbek adabiyotida Xurshid Doʻstmuhammad ijodining oʻziga xos oʻrni bor. Yozuvchi oʻzbek oʻquvchisiga hodisa, holatlarga yangicha yondashuvni taklif etgan holda, eksperimentallik anʼanasini rivojlantirib takomillashtirishiga hissa qoʻshmoqda. “Kuza” qissasi mana shu anʼana mahsuli. “Kuza” boshdan-oxir majoziylikka qurilgan asar. Ernest Hemenguey aytmogʻchi, “oʻndan biri suv yuzida, qolgani suv ostida boʻladigan muz togʻ aysberg” misol tamoyil deyarli har satriga singdirilgan bu asarni ham hamdardlik, ham muallifdoshlik, kayfiyati bilan mutoalaa qiladi, oʻquvchi asarni “kuzatuvchi” va “kuzatiluvchi” qarashlaridan tashkil topgan daftar deyish mumkin.

Hamadardlik asar qahramoni Umidning ruhiy nosogʻ opasi bilan bogʻliq lavhalarda kuchliroq seziladi. Opa haqidagi maʼlumotlar, yaʼni uning xushroʻy ayolligi, turmushga chiqib, oilaviy hayoti buzulgani, gʻalati-gʻalati “qiliqlari”, mushtipar onaning kuyunishi, hadik-havotirlar goh bayon qilinib, goh tasvirlanib borgan sari oʻquvchining hamdardligi oshadi.

Asar boshlanishidan-oxirigacha davom etadigan uch doʻst suhbatlari – Aziz, Umid, Farhod – bahsi. Chet eldan taʼtilga kelgan Azizning oʻy-hayollarini tinglab, unga nisbatan hamdardlik tuygʻulari qoʻzgʻaydi. Toʻshakka mixlanib qolgan Ustozning gʻarib ,mahzun holatlatlari, uning soʻliyotgan qiyofasi, nochor va ojizona bir iztirobda termulib oʻtirishi kabi lavhalarda koʻrinadi. Mushtipar onaning qizi baxtsizligidan azoblanish holatlari “qaysi sullohning toʻymagan suhi” nazaridan savdoyi koʻyga tushib qolgan qiziga kuyunish holatlari.

O'tgan asrning so'nggi choragidagi eng mashhur intellektual o'yinlaridan biri – bu, kubik-rubik edi. “Kuza...” qissasining kompozitsion qurilishi ana shu o'yinni eslatadi. Kubikdagi har xil rangdagi yassi bo'laklarni bir rangdagi butunlikka keltirish uchun necha bora aylantirib, moslashtirilganidek, asardagi parchalarga bo'linib sochilib yotgan bir butunni tiklash, yani, lavha, voqea va holatlarini ongda muayyan tizimga, yaxlitlikka keltirib olish kerak bo'ladi. Siniqlarni yaxlitlashtirgan sari to'rt makon va to'rt zamon vaqtidagi motiv-mazmundagi bosh g'oyaga yaqinlashib boradi. O'quvchi har bir satrdan berilayotgan informatsiya-axborot, avval to'g'ridan-to'g'ri, so'ngra esa ko'chma ramziy ma'nolarda anglab boradi.

Ramziylik uchun dastlabki ishora yaxlit tafsilot, holatlarning parchalanishi bo'lsa, keyingisi kichik-kichik detallarda (masalan: qo'l telefonining “tring”lashi, “ming'irlashi”, ”nag'ma qilishi”, “Azizning yo'qolishi” va “topilishi”, “bemorning kumushdek...sochlarini silashi”, ust-boshingizga qarab qo'ying yigit” degan dakki eslatma) ismlar ma'nosida (Umid, Aziz, Maqsud...) tilshunoslik qoidalariga ko'ra vazifasi va qarindosh-aloqadorligi nazarda tutilganda turdosh ot bo'lib ifodalanishi lozim bo'lgan personajlarning bosh harfda berilishi (Opa, Ustoz, Kotiba) kabilarda kuzatiladi. Bu o'rinda aniqki, Opa, Ustoz, Kotiba to'g'ridan-to'g'ri tushunilmay ,har biriga oid lavhalarda majoziylikka ishoralar yaqqol ko'rinib turadi. Asarga mana shu jihatdan to'laqonli “kuzatuvchi” qarashlaridan tashkil topgan mukammal to'plam deyish mumkin. Jumladan, Hasad va Havas bilan qo'shilgan nazar –nafsning qurboni Opa ana shu hayoliy ro'yodagi kuzatuvchi nazarlaridan qochib yuradi.Uning xatti-harakatlarida ; “o'z holimga qo'yasanmi-yo'qmi, it?” deya ukasini kamsitishlarida, Umidning opasi tuzalishiga umidlanishiga uning oddiy, jo'n er fuqarosi emasligi oydinlashib boradi. Ustozning intellektual-falsafiy mushohadalari va, avvalo kuzatuvchi va kuzatiluvchi haqidagi noodatiy savollari, o'ylari (Odamni odam qiladigan ham, qora er qiladigan ham – nazar-E'tibor...insonlarning yashash tarzi kuzatish va kuzatilish...Odam- kuzatuvchi va kuzatiluvchi maxluq), bemor alfozda Umid nigohidagi holatlari, o'limi – barida

tilsim, sirlilik bor. Ustoz qo‘ygan bashariy savollar o‘quvchini o‘ylantiradi , mushohada yuritishga undaydi.

Kotiba – Ustozni ishxonada va bemorligida Umid bilan bog‘lovchi robita , yigitning hayotiga nur. Opasiga sog‘ayish sharofatini bag‘ishlayotgan xaloskor kuch, ya’ni Umidning har jihatdan umidi o‘laroq, oqlik ramzida namoyon bo‘luvchi farishta. Hatto qissa oxirida Umidning juftiga aylangan qizning rutbasi, makoni o‘zgarib, endi vazifasi ham, nomi ham kata harflar bilan tilga olinmasligida bir ramziy belgi-ishora bor. Asar yakunida o‘sha to‘rt doira – qatlam qa‘ridagi ma‘danni topadi – kim kuzatuvchi, kim kuzatiluvchi, deya har qancha iddao qilma, gohi uch do‘stning bahslari kabi qizib-yonib ehtiroslarga berilma, ya’ni, Azizdek kuzatiluvchi taqdir-qismatdan har qancha qochma, yo Opadek nazar-nafas iskanjasida doimo kuzatilayotgan bir savdoi holatida kelma, yoki Ustoz kabi ko‘nglining chekkasida, bir puchmog‘ida eng kuchli, buyuk kuzatuvchiga aylanish ilinjini pinhon saqlayotgan shaytoniy xohishlarni zuhur etma, olamda bor qilguvchi ham, yo‘q qilguvchi ham eng oliy kuztuvchi bor. Kuzatilish inson zotining qismiti. Ana shu qismatga iymon keltiruvchilar saodat topguvchilardir.

Ko‘rinadiki, bugungi qissachiligimiz qahramoni “Kuza” asari misolida kuzatilayotgandek, insonni, jamiyatni, dunyoni, voqelik jarayonlarini falsafiy idrok va ifoda etishdagi tafakkur teranligi bilan umuminsoniy xislat-fazilatlar kasb etayotir. Ko‘ngil deb atalgan ma‘naviy-psixologik olamning ziddiyatli, murakkab, ham nurli va yana ayni paytda qorong‘u ko‘chalarini, odamiylikning yangi-yangi qirralarini kashf etayotir. Tuyg‘ularning fikrini o‘qish kechinmalarning ma‘nosini uqish anglash sari tutingan tuyg‘ular realizmi Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida badiiy psixologizmning o‘ziga xos tabiatini belgilayotir.

X.Do‘stmuhammadning “Kuza” qissasi tajribasida kuzatadigan bo‘lsak, keyingi yillar qissachiligida olam va odam sir-sinoatlarini, tevarak-atrofimizni o‘ragan ijtimoiy muhitni falsafiy idrok etishga qaratilgan fikr-tafakkur bosh qahramonga aylanib borayotganini ko‘rish mumkin.

Demak, bugungi kunda shaxsni ijtimoiy-psixologik planda tahlil qilish badiiy-estetik tadqiqotchilikning muhim xususiyatlaridan biriga aylandi. Zero, adabiyotshunos No‘mon Rahimjonov ta’biri bilan aytganda, «hamma gap adibning qanday mavzu va qahramonlarni tanlamasin, falsafiy-psixologik tahlil etishi va insonning zafari yoki inqirozi orqali tiriklik falsafasini, jamiyat psixologiyasini, umr hikmatini badiiy mujassamlashtira olishi, ma’naviy qadriyatlarni himoya qiluvchi umumbashariy mazmundagi xulosalar chiqara bilishida» ekan.

XX asrning 90- yillaridan e’tiboran, Xurshid Do‘stmuhammadning badiiy-estetik izlanishlarida falsafiy-psixologizm chuqurlashdi. Adib asarlarida insonni tushunish hamda tushuntirishda falsafiy ma’nodorlik badiiy tafakkurning ustivor xususiyati bo‘lib qoldi.

Darhaqiqat, nutqiy xarakteristika, dastavval personajlarning o‘zlarini o‘zlari va bir-birlarini tavsiflovchi vositadir. SHu bilan birga, u oddiy so‘z emas, balki harakat hamdir. Har bir replika (personaj aytgan jumla) personajlar munosabatiga, albatta ozgina bo‘lsada o‘zgarish kiritadi va muallifning bosh g‘oyasini shakllanishini jindak bo‘lsa-da, rivojlantiradi. Gegel haqli ravishda ta’kidlaganidek, “... hayotni badiiy idrok etishda voqelikning mag‘zi nasriy asarlar asosini tashkil etadi. Bunda odamlar ruhiyati bilan jamiyat psixologiyasini vobasta anglash, ko‘rsatish va ifodalash adib badiiyatini belgilab beradi”. Qolaversa, «Voqelikni realistik ifoda va idrok etishda san’atkorning estetik ideali, ijodiy nuqtai nazari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Voqelik xossalarini iker-chikirlari, mayda tafsilotlari bilan detallashtirib tasvirlash orqali hayotning real manzarasi yaratiladi. Bu hayotni epik miqyoslarda ko‘rish va ko‘rsatish tamoyillaridandir. Bu badiiy tasvir mazmundorligining realistik ifoda shakllaridan biri» ekan, bu ma’noda mustaqillik davri o‘zbek qissaachiligida adiblarimiz bir qancha yangi tamoyillarni yuzaga keltirayotir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi qissachiligimizdagi muhim fazilatlardan biri – bu, shirin yolg‘ondan uzoqlashib, hayotning konkret va real muammolari xususida mushohadakorlikka berilganida ko‘zga tashlanadi. Xususan,

adabiyotimiz uzoq yillar umumxalq baxt-saodati haqidagi va'dalar girdobida kuymalanib, aldanib yashadi. Bugun esa, u o'z rivoji uchun yangi-yangi manbalar izlayapti, topayapti. Bu esa o'zligini tanib, bilib borayotgan, erkin va sog'lom fikrlovchi, siyosatlashmagan individual qahramonlar obrazlarini yaratishga intilishdir.

Keyingi paytda voqea-hodisalarning «qon bosimini» kayfiyat va nafas olishini, yurak urishini odamlarning tafakkur madaniyati bilan bog'liq ravishda aks yettirish realistik ifoda psixologizmning kuchayishini ta'minlagan» badiiy omil ekanligini adiblarimiz chuqur anglab etdilar. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy ziddiyatlar hozirgi qissachiligimiz asosini tashkil etmoqda. Bu narsa adiblarimizning butkul diqqat-e'tibori, badiiy nigohi shaxs ruhoniyatiga, inson qalbiga-bekaron ko'ngilga ko'chganligidan dalolat beradi shundan kelib chiqib aytish mumkinki, inson qalbi adabiyotning katta doshqozoniga aylandi. Inson ko'nglida kechayotgan bo'ronlar, bo'hronlar, to'fonlar, tahlili orqali jamiyat tartiblariga, voqelik jarayonlariga, odamlararo muloqot oqibatlariga munosabat bildirish, ularni badiiy-estetik baholash hozirgi hikoyachiligimizdagi etakchi tamoyillardan hisoblanadi. Zero, shaxsni ijtimoiy-psixologik yo'nalishda tahlil qilish badiiy-estetik tadqiqotchilikning muhim xususiyatlaridan biriga aylandi. Demak, «psixologizm-inson taqdiridagi xoh fojeiy yoki romantik, xoh jo'mardlik yoki satirik holatlar bo'lsin, barchasini realistik o'zanga solayotir. Bu realistik tasvir va tafakkur madaniyatining yangi ko'rinishlaridan biri hisoblanadi». SHu ma'noda fojeiy qismlarni realistik o'zanda tasvirlab berish ham san'atdagi go'zallikning xos ko'rinishlaridandir. Negaki, inson qalbidagi yorug'lik hayotidagi riyo, razillik, zo'ravonlik, qabohat, yolg'on, zulm singari illatlar bilan ro'baro' kelayotir. Lekin u ana shu zulmatli ko'rinishlarining yo'q bo'lishini istaydi. Bugungi asarlarimiz qahramonlari yorug'lik tantanasi uchun kurashda ko'ngil pokdomonligini saqlab kelayotir.

Bob bo'yicha qisqa xulosa:

1. Badiiy adabiyotning qaysi janrida bo'lmasin, qahramonning ichki olamiga alohida e'tibor qaratiladi. "Psixologik tahlil" esa inson psixikasi jarayonlarini, uning fikr va hissiyotidagi turli-tuman "ohang" rivojini aks ettiruvchi, qahramon ruhiy dunyosini analitik tamoyilda ochuvchi estetik kategoriyadir"

2. Istiqlol yillarida Sh.Xolmirzaev, O.Muxtor, X.Do'stmuhammad, T.Murod kabi yozuvchilarning asarlari kitobxonni yangicha fikrlashga chorlaydigan, shakliy izlanishlarga boy, qahramonning tashqi faoliyatidan ko'ra ruhiy va insoniy qiyofasi ochib berilgan. Bunday yuksak saviyada yozilgan asarlarga asoslanib aytish mumkinki, milliy istiqlol davri asarlari xalqimizning kelajak yo'lini yoritadigan ijtimoiy saboqlar majmuasiga aylandi.

3. Epik asarlarga xos "Nigoh" qissasida qahramonning ichki kechinma, ruhiy holatlari to'g'ridan-to'g'ri ifodalanmaydi. Dissertatsiya mavzuimizga bevosita aloqador bo'lgan ruhiy kechinma hamda uning tasviri badiiy asarda tasvirlangan olam sifatiga to'g'ri keladi. Tasvirlangan olam badiiy detallardan tashkil topadi. Badiiy detallar peyzaj, portret, harakat, biror-bir narsa, ruhiy holat manzaralari va boshqa ko'plab vositalardan iboratdir. Badiiy detallar tabiati va vazifasiga ko'ra tashqi va ichki kabi guruhlarga ajratib olinadi.

4. XX asrning 90- yillaridan e'tiboran, Xurshid Do'stmuhammadning badiiy estetik izlanishlarida falsafiy-psixologizm chuqurlashdi. Adib asarlarida insonni tushunish hamda tushuntirishda falsafiy ma'nodorlik badiiy tafakkurning ustivor xususiyati bo'lib qoldi.

5. X.Do'stmuhammadning "Kuza" qissasi tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, keyingi yillar qissachiligida olam va odam sir-sinoatlarini, tevarak-atrofimizni o'ragan ijtimoiy muhitni falsafiy idrok etishga qaratilgan fikr-tafakkur bosh mavzuga aylanib borayotganini ko'rish mumkin.

UMUMIY XULOSA

1. Badiiy asarlardagi personajlar nutqi tadqiqi qadimdan adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, mazkur muammo globallashuv jarayonlari avj olayotgan hozirgi davrda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2. Badiiy asar tili muallif nutqi va personaj nutqi kabi qismlarga ajratildi. Professor Y.Solijonov badiiy asar tili vazifasi jihatidan kimga daxldorligiga ko'ra avtor nutqi, dialog, monolog, ichki nutq, o'zganing nutqi kabi turlarga ham bo'lgan.

3. Arab tilidan olingan bo'lib, "*tartib*"," *tizim*","*yo'sin*" degan ma'nolarni anglatadigan "*uslub*" har bir yozuvchida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ya'ni uslub ijodkorning umumiy saviyasidan, badiiy mahoratidan dalolat beradi. Badiiy asar uslubi asarni tashkil etadigan barcha unsurlar tizimi (yig'indisi) emas, balki o'sha elementlar sistemasini bir-biriga tutashtiradigan badiiy qonuniyat – muallifning o'ziga xos prinsipidir.

4. Milliy til, milliy xarakter, milliy psixologiya, milliy-axloqiy qoidalar, urf-odat va kiyim-kechaklar, etnografik o'ziga xoslik, milliy peyzaj badiiy adabiyotning milliylikni ta'minlovchi omillar sifatida beriladi. Milliylikni ta'minlovchi omillarning eng birinchi ko'rinishi ham – bu, milliy tilda namoyon bo'ladi. Umuman olganda til va uning mohiyati, milliylik jihatdan tutgan o'rni badiiy asarning chin ma'noda haqiqiy asar deb baholanishida asosiy vazifani bajaradi.

5. Xurshid Do'stmuhammad milliy adabiy an'analarni ham, dunyo adabiyoti tajribalarini ham puxta o'zlashtirgan, doimiy izlanish, so'z va fikr qolipini yangilashga intilgan ijodkordir. Adib o'z asarlarida avvalo personajlar nutqi, qolaversa, ularni kitobxonlarga to'laqonliroq tasvirlash maqsadida muallif nutqi orqali beriladigan izohlarga ham alohida e'tibor qaratadi.

6. X.Do'stmuhammadning istiqlol yillarida yaratilgan qator "Nigoh", "Oromkursi", "Kuza" qissalari kitobxonni yangicha fikrlashga chorlaydi. Mazkur qissalar shakliy izlanishlarga boy bo'lib, qahramonning tashqi faoliyatidan ko'ra ruhiy va insoniy qiyofasini tasviriga katta e'tibor qaratilgan.

7. Ruhiyat tahlili "Nigoh" qissasi mazmunini anglab yetishda alohida ahamiyat kasb etib,. Bunda asar qahramonining o'y, kechinma, orzu-istak, hissiy-holat va kayfiyatdan iborat ichki olamini badiiy tasvirlar vositasida ochib beruvchi alohida psixologizm deb ataluvchi yo'nalishni yuzaga keltiradi.

8. Epik asarlarda qahramonning ichki kechinma va ruhiy holatlari to'g'ridan-to'g'ri ifodalanmaydi: XX asrning 90- yillaridan e'tiboran, Xurshid Do'stmuhammadning badiiy estetik izlanishlarida falsafiy-psixologizm chuqurlashdi. Adib asarlarida insonni tushunish hamda tushuntirishda falsafiy ma'nodorlik badiiy tafakkurning ustivor xususiyati bo'lib qoldi.

9. X.Do'stmuhammadning "Kuza" qissasi tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, keyingi yillar qissachiligida olam va odam sir-sinoatlarini, tevarak-atrofimizni o'ragan ijtimoiy muhitni falsafiy idrok etishga qaratilgan fikr-tafakkur bosh mavzuga aylanib borayotganini ko'rish mumkin.

10. Xurshid Do'stmuhammad o'z asarlarida avvalo personajlar nutqi, qolaversa, ularni kitobxonlarga to'laqonliroq tasvirlash maqsadida muallif nutqi orqali beriladigan izohlarga ham alohida e'tibor qaratadi.

11. Adabiy qahramon nutqini turli fanlar tutash nuqtasida atroflicha tadqiq va tahlil etish adabiyotshunosligimiz oldida turgan galdagi muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-metodologik va ilmiy-nazariy adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Бекмуродов М. Ўзбек менталитети / Республика маънавият ва маърифат маркази, Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази. – Тошкент: Info Capital Group, 2011.
3. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2006.
4. Гегел. Эстетика. Биринчи жилд. Рус тилидан М.Абдуллаев таржимаси. – Фарғона, 2011.
5. Жўраев Т. Модерн онг оқими. – Фарғона: “Фарғона”, 2009.
6. Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик. – Тошкент: Фан, 1994.
7. Жўраев Ҳ. Лирик қаҳрамон ва муаллиф шахсияти. – Тошкент: Фан, 2008. – 76 б.
8. Зуннунов А., Ҳотамов Н. Адабиёт назариясидан қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 159 б.
9. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
10. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O'zbekiston, 2014.
11. Мўминов С., Тоштемиров М. Халқ руҳияти ва нутқнинг актуал бўлиниши // Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2001.
12. Норматов У. Ижодкорнинг даҳлсиз дунёси. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2008.
13. Норматов У. Ижодкорнинг ҳароратли сўзи. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.
14. Норматов У. Жанр имкониятлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.

15. Потебня А.А. Слова и миф. – М., 1989. www.philologos.narod.ru
16. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.
17. Раҳимов А. Миллий адабиётлар равнақи. – Тошкент: Фан, 1981.
18. Раҳимов А. Одамда олам ташвиши. – Тошкент: Ўзбекситон, 1982.
19. Rahimov Z. Adabiyotshunoslik: savol va javoblar. – Farg’ona: “Farg’ona”, 2013.
20. Румий Ж. Ичиндаги ичиндадур. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – 238 б.
21. Садаев Ф., Қурбониёзов Г. Адабиётшунослик атамалрининг изоҳли сўзлиги.. Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.
22. Сидоров Е. Время, писатель, стиль. – Москва., 1983. – 320 б.
23. Сиддиқ Мўмин. Нутқ ва ижод услубининг худудий хосланиши. – Тошкент, 1998.
24. Umurov N. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2004 – 262 b.
25. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. 112 б.
26. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент: Mumtoz so’z, 2014.
27. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 266 б.
28. Худойберганава Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.
29. Қодиров П. Тил ва Эл. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 294 б.
30. Қосимов А.А. Типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсирнинг назарий муаммолари. Филол.фанл.докт.дисс. автореф. – Тошкент, 2007.–48 б.
31. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.228 b.
32. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.
33. Қўчқорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Muharrir, 2011.

34. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.
35. Қуроноф М. Миллий тарбия. – Тошкент: Маънавият, 2007.– 238 б.
36. Ҳамдам У. Рухни уйғотувчи сўз. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017.
37. Ҳайдаров Б. Ўзбекчилик. – Тошкент: NOSHIR, 2012.
38. Ҳозирги ўзбек адабиётининг миллий ўзига хослиги. Тўплам. – Тошкент: Фан, 1984.

II. Dissertatsiya va avtoreferatlar ro'yxati

1. Дўстмуҳаммад Х. Н. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадиий тафаккуринг янгилиниши (80- йиллар иккинчи ярми ва 90- йиллар аввалидаги ҳикоялар мисолида) Филол.ф.н. диссерт. автореф. – Тошкент, 1995.
2. Имомова Г. Типик миллий характер яратишда бадиий нутқнинг ўрни. Филол.фан. номзоди... дисс... автореф. – Тошкент, 1993.
3. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол.фанлари док... дисс... автореф. – Тошкент, 2000.
4. Rajabova O. Xurshid Do'st Muhammad asarlarida ijodiy individuallik. – Nukus, 2015.
5. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Филол.фанлари док... дисс... автореф. – Тошкент, 2002.
6. Эрназарова Г. XX аср ўзбек поэзиясида миллий тафаккур ва унинг бадиий талқини (Чўлпон, Ғ.Ғулом, А.Орипов шеърляти мисолида): Филол. фанлари номзоди... дисс... автореф. – Тошкент, 2001.

III. Adabiy-badiiy asarlar ro'yxati

1. Дўстмуҳаммад Х. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2011.
2. Аъзам Э. Қачон ўзбекча гапирамиз? // Оила ва жамият, 1992 йил (51) 33.